

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Hozirgi kun zamonaviy iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobatbardoshligini va samaradorligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bunga sabablardan biri esa globallasuv jarayonidir, mamlakatlarning bir biri bilan bog'liq va o'zaro ta'sirini hisobga oladigan bo'lsak, transmilliy kompaniyalar orqali globallasuv jarayoni yuzaga kela boshlanadi, bu esa o'z navbatida avvalo mamlakat ichidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'rib chiqadigan bo'lsak, AQSH ning YAIM qiymatining 44 % ni, Rossiyada esa 21 %, Xitoyda 60 %, Germaniyada 31 % ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari yaratadi. Bu ko'rsatkich 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 51,2 % ni tashkil etgan.

Jaxon mamlakatlarida innovatsiyalardan foydalanish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga maxsulot tannarxini pasaytirish, sifatini oshirish va o'z navbatida bozorda raqobatga chidamlilik darajasini oshirish imkonini beradi. Shuningdek globallasuv jaroyoni chegaralarning yo'qolishini va dunyo bozorining yagona bozorga aylanishiga olib keladi va bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga xalqaro talab va standartlarga mos keluvchi tovar va xizmatlarni dunyo bozoriga taqdim qilishlarini taqozo etadi. Kuchli va o'zgaruvchan raqobat sharoitida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining omon qolishi, raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanishi ularning mahsulot va xizmatlarini, ishlab chiqarish usullarini doimiy ravishda o'zgartirish va albatta bu yo'lda innovatsiyalardan foydalanishni talab qilmoqdadir.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadi qilib, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning

yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish etib tayinlandi. Xususan, har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “Ochiq muloqoti”ni o‘tkazish, hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og‘ir bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish. Mamlakatimizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish, har taraflama qo‘llab-quvvatlash maqsadida oxirgi yillarda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilmoqda. Natijada o‘tgan bir yilda 55 mingdan ortiq biznes uchun mo‘ljallangan binolar barpo etildi, pul aylanmasini 1 million dollardan oshirgan tadbirkorlar soni 5 mingtaga ko‘payib, 26 mingtani tashkil etdi, eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingtaga yetib, jami eksport hajmi 30 foizga ko‘paydi, ilg‘or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma‘lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish, qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish.¹

Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar”, shuningdek, “Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 2022 — 2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA.

imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi PF-5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4417-son qarorlari, 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan muhim vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi hududidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan samarali foydalanishning iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonlarida hamda xududlarda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarni sifatini oshirish, ularni jaxon andozalari talablariga javob berishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalardan keng foydalanish yo'llarini takomillashtirishga mo'ljallangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiya ishimizning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yilgan:

Innovatsiya kategoriyasining mazmuni, uning iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyatini asoslash;

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshlik darajasining bosqichlarini tahlil qilish;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatdoshligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish;

Innovatsiyalarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga korsatadigan ta'sirini va uni boshqarish tizimining zamonaviy holatini baholash va asosiy xususiyatlarini aniqlash;

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari innovatsiyalardan foydalanish yo'llarida duch kelayotgan muommalarni aniqlash va ularga yechim topish strategiyalarini ishlab chiqish;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan to'g'ri va samarali foydalanish yo'llarini asoslash;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish yo'llarini xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va ularni mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanish yo'llarini asoslash;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalardan foydalanishdagi ekonometrik tahlil qilish, iqtisodiy prognozlash va iqtisodiy modellar ishlab chiqish va boshqalar.

Ilmiy yangiligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar faoliyatining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish yo'llari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan olingan va himoyaga qo'yilayotgan ilmiy yangiliklar quyidagilardan iboratdir:

“Raqamli innovatsiya”, “raqobatbardoshlilik”, “innovatsiya”, “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati raqobatbardoshligi”, “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish” tushinchalarining mavjud tariflari qiyosiy o'rganilib, muallif tomonidan yangi mazmundagi fikr mulohozalar bilan takomillashtirilgan;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyon mahsulot ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar ishlab chiqarish hajmi hamda tovar moddiy zaxiralarining o'zgarishi ta'sirining ekonometrik modeli ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini iqtisodiy rivojlantirishning 2028 yilga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotning asosiy masalasi bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish yo'llarini o'rganish va samarali ijro etish imkoniyatlarini topish hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining nazariy asoslari, uni rivojlantirish va boshqarish, innovatsiyalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yo'llari haqida ko'plab xorijlik olimmlarning ishlarida yoritilgan hamda asoslab berilgan. Jumladan, bu borada va boshqa olimlar ishlarida topish mumkin. Taniqli olimlar Y. Shumpeter, D. Miller, R. Kanter, Bobson College, W.B. Gartner, S.M. Schuler, Stevenson, Jarillo, Jones, Butler, o'sishning innovatsion tarkibi konsepsiyasini ta'minlovchi makroiqtisodiy modellar mexanizmlari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy muommolarini, shu jumladan, uning boshqaruv tizimini tadqiq qilish bo'yicha M. Sharifxo'jayev, I. Salamov, T. Qudratov, I. Qudratova, U. Inoyatov, S. Ahmedov, R. Nurimbetov, S. G'ulomov, B. Xodiyev, Y. Abdullayev, A. Bekmurodov, Sh. N. Zaynutdinov, A. Mahkamova, R. Nurimbetov, A. M. Qodirov, R. Aximova, N. Q. Yo'ldoshev, T. M. Axmedov, B. Berkinov, B. K. G'oyibnazarov, N. Tuxliyev va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.

Yuqorida tadqiq etilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va uslubiy manba hisoblanib, bugungi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mavjud salohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uni rivojlantirishni davlat tomonidan rag'batlantirish bo'yicha qator chora tadbirlar qabul qilingan. Lekin kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish yo'llariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ko'rsatilgan holatlarni

inobatga olgan holda, mazkur masalani imkon darajada tadqiq etish uchun dissertatsiya mavzusi tanlangan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Magistrlik dissertatsiya ishini yozishda guruhlash, qiyosiy va solishtirma tahlil, tarkibiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertatsiya ishida ishlab chiqilan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish yo'llarini topish va ularni joriy etishda qo'llash mumkin. Shuningdek, ishda tayyorlangan materiallaridan keyinchalik oliy o'quv yurtlarida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik", "Biznesni tadqiq etish usullari" kabi kurslarning o'quv dasturini takomillashtirishda hamda o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tasnifi: Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi, uning hajmi esa belgilangan doirada bo'ladi.

I-BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi va uni ta'minlashning nazariy asoslari.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida bir qancha ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, ularning raqobatbardoshligini oshirish esa aholi daromadlarining oshishiga va turmush darajasining yaxshilanishiga olib keluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Innovatsiyalardan foydalanish bu sohaning rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishdagi mexanizmlardan biridir. Shu o'rinda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, innovatsiya, raqobatbardoshlik va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari raqobatbardoshligi kabi tushunchalarning mohiyati va mazmunini aniqlashtirish maqsadga muvoffiqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yirik korxonalarining o'zagini tashkil qilgan holda, mamlakat iqtisodi uchun muhim ahamiyatga egadir va o'z navbatida mamlakatlar uchun iqtisodiy o'lchov sifatida qabul qilingan. Mamlakat iqtisodida raqobat muhitining rivojlanishida iqtisodiy jarayonlarning samarali faoliyat yuritishi uchun inkor etilmas omildir. Muvaffaqiyatli kompaniyalar yoki yirik firmalar deb ta'riflangan yirik tadbirkorlik sub'yektlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning aksariyati barqaror rivojlanishga erishgan eski kichik korxonalar ekanligi ko'rinadi².

Mamlakatimizda keyingi yillarda afsuski, rivojlanayotgan O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari "Fors Major" holatlar, ya'ni "Kovid" pandemiyasining va O'zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkori bo'lgan Rossiyaga qarshi sanksiyalar salbiy ta'siri natijasida keskin pasayib ketdi.

² Emin ÇİVİ, "Yeni Ekonomik Düzenle KOBİ'ler", 1. Orta Anadolu Kongress - Nevşehir "KOBİ'lerin Finansman ve Pazarlama Sorunları, KOSGEB Yayını, 2001, s.326

Yuqoridagi sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotini tezkor sur'atlarda tiklash hamda yanada yuksaltirish yo'llarini izlash lozimligi muammosi paydo bo'ldi va mamlakatimiz rahbariyati yagona to'g'ri yo'lni, ya'ni xo'jalik yuritishning eng samarali shakli - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tanlab oldi, chunki kichik biznes quyidagi afzalliklarga egadir.

- bozor talablariga tez va aniq moslasha oladi. Buning uchun ular shu paytda bozorda talab katta bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishga tez va kam xarajatlar bilan o'ta oladilar;

- bozorni katta biznes chiqarmaydigan turli - tuman "mayda-chuyda" ro'zg'or uchun zarur mahsulotlar bilan ta'minlaydi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini barcha va hattoki eng kichik aholi punktlarida ham joylashtirish mumkin, chunki u juda katta miqdorda ishchi kuchi talab qilmaydi;

- mahalliy va ikkilamchi xom-ashyodan maksimal darajada foydalanadi;

- ularni boshqarish oson;

- tez muddatlarda va kam xarajatlar bilan yangi ish joylari yaratadilar va shu yo'l bilan ishsizlarni ish bilan ta'minlash kabi qiyin ijtimoiy masalalarni hal qilishga yordam beradi;

- byudjetni ishsizlikka to'lanadigan "nafaqa"ni to'lashdan ozod etadi;

- mamlakatimizda sog'lom raqobatni faollashtiridhga yordam beradi va boshqalar.

Har biz mamlakat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tushinchasiga ma'lum tarif mavjud bo'lsada, dunyo mamlakatlariga ko'ra ularning rivojlanish darajasiga ko'ra mezonlar o'zgarishi mumkin.

Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mikrofirmalar, o'rta tadbirkorlik va yirik firmalar sub'yektlarga tarif berilayotganda va o'lchamiga ko'ra bir-biridan farqlanayotganda ta'sir etadigan omillar quyidagi tartibda ko'rsatilishi mumkin:

- Vaqt;
- Iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
- Sanoatlashganlik darajasi;

- Foydalanilayotgan texnologiyalar;
- Bozorning hajmi;
- Faoliyat yo‘nalishi;
- Ishlab chiqarishda foydalanilgan texnologiyalar;
- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xususiyatlariga ko‘ra;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari bir-biridan ajratib ko‘rsatilayotganda sifat va miqdor jihatdan mezonlari ko‘rsatiladi.

Ushbu miqdoriy ko‘rsatkichlardan eng ko‘p foydalaniladigani bu xodimlarning soni va asosiy kapital miqdori hisoblanadi. Biroq, bu mezonlar asosan ishlab chiqarish sohasida qo‘llaniladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tariflayotganda ishchilar sonini e‘tiborga olgan:

1.1-jadval

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini ishchilar soniga ko‘ra nom berishi³.

Ishchilar soni	Shkala
1-4- kishi	Mikro o‘lchovdagi tadbirkorlik
5-19- kishi	Juda kichik o‘lchovdagi tadbirkorlik
20-99 kishi	Kichik o‘lchovdagi tadbirkorlik
100-500 kishi	O‘rta o‘lchovdagi tadbirkorlik

Jaxon banki tashkilotining mezonlariga ko‘ra:

Ishlab chiqarish sektorida 50 kishigacha ishchi soni bo‘lgan qismi kichik tadbirkorlik sub'yektlari, 50 kishidan 250 kishigacha bo‘lgan qismi esa o‘rta kattalikdagi tadbirkorlik subyektlari deb hisoblanmoqda.

Yevropa Ittifoqi ga ko‘ra kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga tarif berilishi quyidagichadir:

³Peter F. Drucker INNOVATION and ENTRE-PRENEURSHIP practice and Principles: perfect bound, November 2002, page 28. <https://oecdcoigito.blog/?s=the+defination+of+small+business>

Ishchilar soni 250 kishigacha bo'lganda o'rta tadbirkorlik, ishchilar soni 50 kishigacha bo'lganda kichik tadbirkorlik, ishchilar soni 10 kishigacha bo'lganda kichik tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qonuni Tadbirkorlik kodeksiga ko'ra, kichik tadbirkorlik sub'yektlari quyidagi toifalarga ajratiladi:

- Yakka tartibdagi tadbirkorlar.
- Mikrofirmalar - o'rtacha yillik xodimlar soni yigirma nafargacha bo'lgan va tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish bo'yicha o'rtacha yillik aylanma miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'n sakkiz ming baravarigacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari.
- Kichik korxonalar – o'rtacha yillik xodimlar soni yuz nafargacha bo'lgan va tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish bo'yicha o'rtacha yillik aylanma miqdori bazaviy hisoblash miqdorining to'qson ming baravarigacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari kiradi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda quyidagilarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari kichik tadbirkorlik sub'yektlari deb tan olinmaydi:

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning hamda ularning analoglarini; realizatsiya qilish bilan bog'liq faoliyat; aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarish va (yoki) ulgurji savdosi bilan bog'liq faoliyat; paxta xom-ashyosi qabul qilish punktlarida paxta xom-ashyosini saqlash faoliyati; lotoreyalar tashkil etish; radioaktiv, portlovchi, zaharli moddalar va materiallar aylanmasi bilan bog'liq faoliyat; kredit byurolari faoliyati; fuqarolik va xizmat qurollari va o'q-dorilarning muomalasi bilan bog'liq faoliyat.

O'rta tadbirkorlik subyektlari toifasiga xodimlarning o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq biroq ikki yuz ellik nafardan ko'p bo'lmagan va (yoki) tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish bo'yicha o'rtacha yillik aylanma miqdori bazaviy hisoblash miqdorining to'qson ming baravaridan ortiq biroq to'rt yuz ellik ming baravaridan ortiq bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari kiradi.

Yirik tadbirkorlik subyektlari toifasiga xodimlarning o'rtacha yillik soni ikki yuz ellik nafardan ortiq bo'lgan va (yoki) tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya

qilish bo'yicha o'rtacha yillik aylanma miqdori bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz ellik ming baravaridan ortiq bo'lgan tadbirkorlik subyektlari kiradi.

Kichik biznes subyektlarining foydalanishi mumkin bo'lgan 10 ta raqobat afzalliklari:

- Tez qaror qabul qilish jarayoni.
- Jamoani kengaytira olish va rivojlantira olish imkoniyat.
- Mijozlarga hizmat ko'rsatishni shaxsiy talablarga moslashtira olish
- Rahbariyat bilan bevosita aloqa mavjudligi.
- Kichik biznes subyektlari faoliyatini mahalliyashtira olish
- Innovatsiyalarni tezlik bilan kirita olish
- O'z brendingizni yarata olishingiz.
- Tez va samarali harakatga keltirib tura olish.
- Mutaxassislikga ko'proq e'tibor bera olish.
- Yangi maqsadli bozorlar yarata olish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kichik o'lchamda bo'lishi ba'zi noqulayliklar yaratishi bilan birga raqobatbardosh bo'la olishi uchun bir imkoniyatdir. Bunday imkoniyatlardan biri bu tez qaror qabul qilish va innovatsion mahsulotga tezlik bilan moslashtira olishidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishchilar soni kam bo'lishi mumkin lekin bu ularning raqobatbardoshligini oshirishda bozor talablariga tezroq moslashish imkonini beradi.

Yana bir imkoniyatlardan biri bu bozordagi bo'shliqlarni yangi tovarlar bilan to'ldira olish imkoniyatidir. Yirik korxonalar va firmalar, kompaniyalarga to'la bozorda kichik biznes subyekti yoki xususiy tadbirkorlik subyektlari bo'lish oson emas, bu borada yangi bozorlarni yarata olish imkoniyati raqobatbardoshlik ustunligiga yetrilguncha sabab bo'la oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ishchilar sonining chegaralanganligi va kamligi bu rahbariyat bilan har bir xodimga alohida e'tibor bilan ishlay olish imkonini beradi. Yirik firmalarda yuzlab minglab ishchilar ishlashini hisobga olsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida

xodimlarning kamligi ham raqobatbardosh bolishining bir imkonidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari xodimlarining

Bozorning eng yaxshi o'yinchilaridan biri sifatida ro'yxatga olinishi va katta mijozlar bazasiga ega bo'lish juda yaxshi. Ammo, mijozlar bilan bevosita aloqada bo'lish va odatiy yondashuvga ega bo'lish haqida gap ketganda, kichik biznes sub'yektlarining ustun taraflari ko'proqdir. Kichik biznes o'z mijozlarining har birining aytganlarini tinglash va xizmatlarni shunga mos ravishda o'z faoliyatini yangilash va moslash imkoniyatiga ega. Bu ko'proq mijozlarni ushlab turishga va mijozlarning ehtiyojlarini qoniqtirishini oshirishga olib keladi. Kichik biznes doimiy daromadga ega bo'lish uchun bu qobiliyatdan foydalanishi kerak. Kichik biznesning yirik kompaniyaga nisbatan raqobatdosh ustunligidan biri bu xodimlar va kichik biznes bilan shug'ullanuvchilar o'rtasidagi yaxshi aloqadir. Xodimlar kundalik muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan yuqori darajadagi biznes rahbarlari bilan bevosita muloqot qilishlari mumkin, bu esa har qanday muhim masalalarni hal qilishni osonlashtiradi.

Kichik biznes muhitida ishlashning ajoyib jihatlaridan biri shundaki, siz u erda haqiqatan ham "o'z brandingizni" yaratishingiz mumkin, ayniqsa dastlabki bosqichlarda qo'shilsangiz.

Kichik biznesning katta kompaniyaga nisbatan katta raqobat ustunligi uning xodimlari va mijozlari uchun eng yaxshi dasturiy ta'minotni tanlash qobiliyatidir. Yirik kompaniyalar ko'pincha eskirgan dasturiy ta'minotda qulflanadi va kichik kompaniyalar yangi dasturiy ta'minotni tez va samarali o'zgartirish va qabul qilishda katta afzalliklarga ega. Bu kompaniyaning vaqtini va pulini tejash va ularga o'z mijozlariga umumiy mijozlar tajribasini taqdim etish imkonini beradi.

Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining muhimlik darajasini ko'rsatuvchi to'rtta asosiy element mavjud. Bular: yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalar yarataolish qobiliyatlari, moslashuvchanlik (elastiklik) va raqobatdoshlikga chidamliligi va oxirgisi yirik kompaniya va firmalar uchun kichik o'lchamdagi andaza bo'la olishligidir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini yirik firmalardan ajratib turadigan xususiyatlar quyidagicha ko'rsatish mumkin⁴:

- Texnologik yangiliklarga tez moslashishi.
- Oz miqdordagi investitsiya bilan ko'proq ish o'rinlari yaratish
- Bozordagi talabni tez fursatda to'yindiraolish
- Talab o'zgarishiga ko'ra yengil moslasha olish
- Ishlab chiqarishda tajriba qilish va xato qilish metodlarining ustunligi
- Barqaror ishlab chiqarishning imkonsizligi

Raqobat ustunligi tushunchasi odatda ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, bu raqobatchilarga nisbatan biznes imkoniyatlari va resurslarining nisbatan ustunligi sifatida ifodalanadi. Yana bir keng tarqalgan ma'no - yuqori iste'molchi foydasi yoki past nisbiy xarajatlarga qarab bozordagi mavqei ustunligi sifatida aniqlanadi.

Bugungi kunda ko'pgina inson istak va ehtiyojlarini qondirish, kamchiliklarini to'ldirish maqsadida yetarlicha muommolarga duch kelganida bu holatdan shikoyat etilishga bo'lgan moyilliklarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: kutayotgan transportning judayam tiqilinchligi yoki o'z vaqtida kelmasligidan, o'zi xohlagan rangda yoki stilda kiyim topa olmaganidan, mashinasini qo'yishga mashinalar turargohida joy yo'qligidan, ko'nglidagiday taomlar pishiriladigan birorta restoran yo'qligidan, rasmga tushgandan keyin nega birdaniga chiqarib olib bo'lmasligidan (bu kabi misollarni yana ko'plab davom ettirish mumkin) kabi muommolardan shikoyat etgan insonlarni uchratish mumkin. Tadbirkorlik bu kabi muommo va shikoyatlarga qarshilik ko'rsatishdir. Chunki tadbirkorlar odatiy insonlar (iste'molchilar) dan farqli fikrlash qobilyatiga egadirlar. Tadbirkorlar shunday insonlarki, bu holatlardan shikoyat etish, bunday vaziyatlarni muommo sifatida qarash va bu holatlarga noqulaylik deb qarashni noto'g'ri deb hisoblaydilar. Aksincha bunday vaziyatlarga qulay fursat deb qaraydigan va

⁴ Prof. Dr. M. Tamer MÜFTÜOĞLU “ Türkiye’de KÜÇÜK ve Orta Ölçekli İşletmeler KOBİ’LER, Ankara 2013, “ turhankitabevi”

insonlarning duch kelgan bu muommolarini bartaraf etish, ular uchun yechimlar topishga harakat qilgan insonlar tadbirkorlar hisoblanishadi. Shu sababli tadbirkorlikni insonlarning muommolariga yechim topish vositasi sifatida ham qarashimiz mumkin. Bunday yechim topishga harakat qilingan ba'zi tadbirkorlik ishlarini misol keltirishimiz mumkin. Masalan: vertikal joylashgan avtomobil turargohi, polaroid fotoaparati. Ma'lumki, shaharlarda transport vositalarining ko'payishi yo'llardagi tirbandlikni va avtomobil turargohlaridagi joy yetishmovchiligi muommosini olib keladi, vertikal joylashgan avtomobil turargohi bu muommolarning tadbirkor nigohidagi innovatsiyadan foydalangan holdagi yechimidir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi bo'lib, unga mos ravishda tadbirkorlikning 3 guruhini alohida ko'rsatish mumkin:

1. Yangi Tovar va xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shug'ullanadi.

2. Tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar. Tadbirkor tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanadi.

3. Maqsad jihatdan tadbirkorlikning ikki turi bo'lib: a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qiladi; b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muhofozasi, yosh avlod tarbiyasi, sog'liqni saqlash) erishishni maqsad qilib qo'yadigan turlarini ko'rsatish mumkin.

Xususiy tadbirkorlik — xo'jalik yuritishning shunday tashkiliy huquqiy shakli-ki, unda mulk egasi bitta shaxs yoki oila bo'ladi va faoliyatdan kelgan daromadni hammasiga egalik qiladi, biznesdagi xavf-xatar va tavakkalchilik uchun yakka o'zi javob beradi.

Tadbirkor (*entrepreneur*) so'zi fransuzchada "amalga oshirish", "zimmasiga olish" ma'nosida kelgan *entreprende* so'zidan paydo bo'lgan⁵.

⁵ Bert Hoselitz, (1952), "Entrepreneurship and Economic Growth," American Journal of Economics and Sociology 12, no.1 (October): 97–110.

“Tadbirkorlik” so‘ziga berilgan tariflar turlicha bo‘lishiga qaramasdan umumiy ishlatilgan so‘zlar ham mavjud. Shuningdek, “Tadbirkorlik” so‘zining iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan tariflarga quyidagi jadvalda ko‘rib chiqildi.

1.1.1-jadval.

Tadbirkorlik so‘ziga berilgan tariflar.

Muallif	Tadbirkorlikga berilgan tarif
Miller	Bir firmaning mahsulot-bozor munosobatlari va texnologik yangiliklar bilan bog‘liq faoliyatidir ⁶ .
Kanter	Yangi kombinatsiyalar yaratish ⁷ .
Gartner	Yangi urinishlarning boshlanishi davri; yangi tashkilotlarning tashkil topishi davridir ⁸ .
Schuler	Mavjud tadbirkorlik faoliyatida yoki yangi biznes tashkil topishida, yangi mahsulot, xizmat yaratish yoki inovatsiyaga yo‘naltirilgan amaliyotdir ⁹ .
Stevenson va Jarillo	O‘z nazoratidagi mavjud resurslardan qat‘iy nazar, kishilarning ega bo‘lgan kishi. ¹⁰
Jones va Butler	Firmalarning qulay fursatlarni farqlagan holda mahsulot omillari orasidagi. ¹¹
Krueger va Brazeal ¹²	Mavjud bo‘lgan resurslarga qaramasdan qulay fursatlarni ta‘qib etishdir. ¹³
Kouriloff	Yangi korxonalar boshlash davridir.
Shane va Venkataraman	Yangi mahsulotlarni yaratish uchun qulay imkoniyatlarni kashf etish, aniqlash va foydalanishdir.
Low	Yangi korxonalar aniqlanishidir.

Tadbirkorlik bilan bog‘liq yuqoridagi tariflarga e‘tibor qaratilsa, tadbirkorlik tariflarining hammasida uchta asosiy fikrni ko‘rish mumkin. Bular tashabbusni qo‘lga olish, resurs va vaziyatlardan to‘g‘ri foydalanish yo‘lini topish uchun, iqtisodiy va ijtimoiy sistemaning yangidan tartibga solish uchun

⁶ Miller, Danny. (2011). Miller (1983) Revisited: A Reflection on EO Research and Some Suggestions for the Future. *Entrepreneurship: Theory and Practice*. 35. 10.1111/j.1540-6520.2011.00457.x., www.ResearchGate.com

⁷ The Change Masters: Innovation and Entrepreneurship in the American Corporation] [Author: Rosabeth Moss Kanter] [Mar-1985

⁸ ((Who Is an Entrepreneur?" Is the Wrong Question William B. Gartner, www.ResearchGate.com

⁹ Entrepreneurial orientation and performance in young firms: The role of human resource management

¹⁰ A Paradigm of Entrepreneurship: Entrepreneurial Management Howard H. Stevenson and J. Carlos Jarillo

¹¹ Managing internal corporate entrepreneurship: An agency theory perspective. www.APAPsycNet.com

¹² <https://www.scirp.org/reference/ReferencesPapers?ReferenceID=408630>

¹³ Entrepreneurial Potential & Potential Entrepreneurs, Norris F. Krueger JR., Deborah V. Brazeal, www.researchgate.net

tavakkalchilikni va omadsizlikni bo‘yniga olishdir. Yana shuni ham aytib o‘tish joizki, tadbirkorlik faoliyatiga beriladigan tariflar o‘rganib chiqilganda, 1982-1992-yillar orasida tadbirkorlikga berilgan 77 ta tarifda foydalanilgan eng kam 5 marta foydalanilgan 15 ta bir biridan farq qiluvchi kalit so‘zlar o‘rin olganini ko‘rish mumkin¹⁴. Tadbirkorlik so‘ziga tarif berilganda eng ko‘p ishlatilgan kalit so‘zlar quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

1.1.2-jadval

Tadbirkorlik faoliyatiga tarif berilganda urg‘u berilgan so‘zlar¹⁵

Tadbirkorlik faoliyatiga tarif berilganda urg‘u berilgan so‘zlar	Muallif.
Innovatsiya	Schumpeter(1947);Cochran (1968);Drucker(1985);Julien (1989;1998)
Tavakkalchilik va risk	Cantillion (1755);Knight (1921);Palmer(1971);Reuters (1983)
Ishlab chiqarish uchun,resusrlarni muvoffiqlashtirish, Ishlab chiqarish omillari yoki ularning resurslarini tashkil etish usuli.	Ely va Hess (1893);Cole(1942);Aitken (1965);Belshaw(1955)
Qiymat qo‘shish	Say (1815,1996); Bruyat va Julien (2001);Fayolle (2008)
Keng va uzoqni ko‘rabilish	Longenecker va Schoen (1975);Filion (1991;2004)
Liderlik	Hornaday va Aboud (1971)
Ekonomik sistemaning dinamikasi	Weber (1947); Baumol (1968); Storey (1982); Mofat (1983)
	Collins,Moore va Unwalla (1964);Smith (1967);Komives (1974);Brereton (1974)
Imkoniyatlarni ko‘rabilish	Smith (1967);Meredith, Nelson va Neck (1982);Kirzner (1983);Stevenson va Gumpster (1985);Timmons (1989);Dana (1995)Shane va Venkataraman (2000)Bygrave va Zacharakis (2004);Timmons va Spinelli (2004)
Samarali	Zaleznik va Kets de Vries (1976);Pinchot(1985)

¹⁴ Müftüoğlu Meslek İdealleri ve Girişimcilik Niyetleri/Professional Ideals And Entrepreneurial Intentions. İstanbul: Dergipark 2004

¹⁵ Prof. Dr. Kahraman Çatı Girişimcilik ve INNOVASYON YÖNTEMİ: nobel, 2.basımı. eylül 2021ö sayfa 8

Havotir va qo'rquv	Lynn (1966);Kets de Vries (1977;1985).
Nazorat	McClelland (1961).
O'zgartirishlarga ochiq	Mintzberg (1973);Shapiro (1975)
Taslim bo'lmaslik/ayblilik	Hagen (1975)

Avvalo kichik biznes, xususiy tadbirkorlik nomlari bilan uchraydigan atamalarga tariflarni keltirib o'tsak. O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik to'g'risida" gi qonunida (1992-y) tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik-mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishadi". Tadbirkorlik - ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy

Tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib ular quyidagilardan iborat: shug'ullanayotgan soha bo'yicha ilm, bilim, saviyaga egaligi;tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabul qilish bo'yicha tashabbuskorlik qobiliyati, iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish; qonunlardan samarali foydalanish; innovatsiyalarni amaliyotga qo'llash; maqsad sari intilish; tashkilotchilik; tejamkorli bo'lish, o'z so'zini ustidan chiqish; ruhiy pok va halol; jamoasi uchun fidoyi kurashuvchan bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik biznes yo'li bilan amalga oshiriladi. «Biznes» so'zi inglizcha so'z bo'lib, tadbirkorlik faoliyati yoki kishilarning foyda olishga qaratilgan faoliyatidir .

Bozor iqtisodiyoti sub'yektlarining xo'jalik faoliyatida «tadbirkorlik» va «biznes» tushunchalari o'zaro yaqin bo'lib, amaliyotda ular bir-birini almashtirishlari mumkin. Rus adabiy tili lug'atida «biznesmen» so'zi go'yoki tadbirkor, ishchan deb yuritilsa, «biznes» bu - faoliyat, foyda keltiruvchi mashg'ulot deb tushuniladi. «Tadbirkor» va «biznesmen» kabi tushunchalarda ishlab chiqarish, dallolchilik, savdo, moliyaviy va innovatsiya faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi va daromad olish niyatidagi inson ifodalanadi. Respublika va xorijiy davlatning iqtisodchi olimlari bozor iqtisodiyoti jarayonini

o'rganishda, tadbirkorlik va biznes tushunchasini iqtisodiy faoliyatning bir turi deb hisoblaydi. Bu tushunchalar xususiy shaxs, korxonalar va tashkilotlar tomonidan daromad olish maqsadida o'zining hamda shartnoma bilan hamkorlikda ishlaydigan sheriklarining manfaatlarini ko'zlab, ishlab chiqarish, sotish, servis xizmat ko'rsatish, tovar ayirboshlash kabi erkin xo'jalik yurituvchi faoliyatini bildiradi, deb hisoblaydi.

«Tadbirkor» va «biznesmen» tushunchalari iqtisodiy faoliyat sohaslarida ko'rilayotganda ma'nodosh deb hisoblanmaydi. «Biznes» tushunchasi «tadbirkor»ga nisbatan kam ma'noga ega deb qaraladi. G'arb davlatlarining bozor iqtisodiyoti haqidagi adabiyotlarida, biznes - jamiyatning talab va xohishlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish tizimi, deb tushuntiriladi. Biznes bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari orasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Biznes - bu kishining bozor munosabatlari tizimidagi ishchanlik faolligidir. Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va turli sohalarda amalga oshiriladi- «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunga (1992-y.) asosan tadbirkorlik - fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishiga yo'naltirilgan mustaqil tashabbuskor faoliyatidir. Fuqaroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik shaxsning (korxonaning) mulkiy javobgarligi asosida faoliyatini amalga oshiradi. Shunday qilib, moddiy mablag' yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lgan tadbirkor ushbu resurslardan foydalanib o'z ishini (biznesini) tashkil qiladi. Tadbirkor tomonidan tashkil etilgan firma (tashkilot, fermer, korxonalar) kichik biznes bir qismiga aylanadi. Bozor munosabatlari tizimida kichik biznes va tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari: ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilarning soni va qaysi sanoat tarmog'iga tegishligi tadbirkorlik shakli sifatida namoyon boladi. Xorijiy tadqiqotchilar, kichik biznes korxonalarini deb, ishlovchilar soni 500 kishi va savdo-sotiq hajmi 20 ming dollardan oshmagan firmalarni kiritadilar. Ammo bu ko'rsatkichlar, O'zbekiston sharoitida ma'lum darajada shartlidir. Kichik biznes degan nomiga qaramasdan yirik ishlab chiqarish va tijorat faoliyati bo'yicha davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tariflari va ularni o'lchamlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash yuchun kiritilgan mezonlardan xulosa qilib aytiladigan fikrlar quyidagichadi:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini ta'minlovchi va oshiruvchi ustunliklaridan biri bu ularning nisbatan kam ishchilar soniga ega bo'lishidir. Bu ustunlik yirik firmalarga nisbatan qaraydigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarida jamoa bo'lib ishlash imkonini beradi. Rahbariyat bilan xodimlar orasidagi munosabatlar nisbatan yaqin bo'lganligi sababli muommolarni hal qilishda bir qancha yengilliklarga erishish mumkin.

1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsiyalarning o'рни.

Hozirgi modernizatsiya jarayonida mamlakatlarning dunyo mamlakatlari safidagi o'рни va butun dunyoda gigimon davlat maqomini olish borasida innovatsiyalarning o'рни takrorlanmasdir. XV asrlarda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish davrlarida yer egaligiga ega bo'lgan juda katta mulkdor davlatlar, qaysi bir korparatsiya, yuridik shaxs yoki davlat yirik yer egalari ega bo'lsa, koloniyalarga ega bo'lsa xalqaro iqtisodiy munosabatlarda "gigimon" harakterga ega bo'lgan. XIX-XX asrlarda energiyaga ega bo'lgan mamlakatlar, tabiiy resurslarni o'z tasarrufida saqlab turgan mamlakatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda asosiy gigimonlikni qo'lga kiritgan. XXI arsdan ilmiy texnik salohiyatga ega bo'lgan davlatlar, ilmiy texnikaviy sohada katta yutuqlarga erishayotgan yoki innovatsiyalarni tijoratlashtirayotgan davlatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng yirik ishtirokchisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ham shu omillarni hisobga olgan holda innovatsiyalarni tijoratlashtirish va innovatsiyon g'oyalar yaratilishiga katta ahamiyat berib kelmoqda.

Mamlakatimizni taraqqiy ettirishning asosiy yo'nalishlari haqida fikr bildirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir" – deb ta'kidlagan edi.

Mamlakatimizda innovatsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. Jumladan, 2017-yilning 29-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5264-sonli farmoni qabul qilindi. Bu bilan O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning yangicha tarkibini shakllantirishga asos solindi.

Innovatsiya konsepsiyasining birinchi marta XIX asr ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lgan. Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi Jozef Alois Shumpeter (1883-1950) hisoblanadi. Y.A.Shumpeter ilgari surgan g'oyaga ko'ra, joriy etilgan har qanday yangi texnik

qaror, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarning tarkib topishi, xomashyolar manbai innovatsiya hisoblanadi. Y.A.Shumpeter o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli kitobida birinchi bo‘lib “yangi kombinatsiyalar” (ya’ni innovatsion muommolar) masalalarini ko‘rib chiqdi va yangilikning to‘liq tavsifini berdi. Keyinchalik "yangi kombinatsiya" atamasi o‘zgartirilib “innovatsiya” holatiga keltirildi. U o‘zining dinamik o‘shish nazariyasida tadbirkorlik innovatsiyasi iqtisodiy o‘shishni ta’minlab, yangi muvozanatni keltirib chiqarishi, bu esa hayot darajasini yanada yuqori standartlarga chiqishini ta’kidlagan. U innovatsiyaga iqtisodiyotni rivojlantiruvchi kuch sifatida ta’rif bergan.

Y.Shumpeter “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (Theory of Economic Development) nomli mashhur asarida innovatsion jarayon natijasidagi o‘zgarishlarni besh yo‘nalishga ajratib ko‘rsatib bergan.

Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iboratdir:

1. yangi texnik va texnologik o‘zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish;
2. yangi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulot turlarini deversifikatsiyalash;
3. ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xomashyolardan foydalanish;
4. ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish;
5. yangi iste’mol bozorlarini shakllantirish.


Y.Shumpeter tadbirkorlik nazariyasini sezilarli darajada rivojlantirdi, innovatsion jarayonda tadbirkorning roliga muhim urg‘u beradi.

Iqtisodiy rivojlanish nazariyasida birinchi marta u iqtisodiy subyektlarni (tadbirkorlarni) ikki turga ajratdi:

1. institutsional tuzilishdagi o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatadigan, yangi texnologiyalarni, mahsulotlarni ishlab chiqadigan hamda joriy etadigan yoki zamonaviylashtiradigan novatorlar;

2. mavjud texnologiyalarni ekspluatatsiya qiluvchi, eski turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan, tashkil etilgan firmalar doirasida faoliyat yuritadigan hamda institutlarning o'zgarmasligiga intilayotgan konservatorlar.

2020-yil 24-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunida innovatsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanmadir.



1.2.1-rasm. Innovatsiya, kashfiyot va ixtironing farqli jihatlari.

Innovatsiya - bu texnika, texnologiya, ishni tashkil etish yoki boshqaruvdagi samaradorlikni oshiradigan yangilikdir.

Ilmiy tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik ishlanmalari natijasida yaratilgan yangiliklar amaliy qo'llanila boshlansa, tijoratlashtirilsagina innovatsiyaga aylanadi.

Innovatsion jarayonlar ikkita bosqichdan: yangi mahsulotni yaratish va yangi mahsulotni tijoratlashtirish jarayonlaridan iborat. Yangi mahsulotni

yaratish jarayoni esa o'z navbatida yangi g'oya paydo bo'lishi va unga asoslanib yangi mahsulot yaratish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi. Yangi mahsulotni tijoratlashtirish jarayoni esa innovatsion mahsulotning tijoriy maqsadlarda ishlab chiqarilishi va uning diffuziyasi bosqichlarini qamrab oladi

Innovatsiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy-texnik yangilik;
- amaliy qo'llanilishi;
- tijoriy amalga oshirilishi, ya'ni bozorda ma'lum darajada iste'molchilar talabini qondira olishi.

Innovatsion faoliyatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyatning erkinligi;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan teng foydalanilishini ta'minlash;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning oshkoraligi va aniq yo'naltirilganligi;
- raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish;
- axborotni erkin almashish;
- innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;
- fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik.

Innovatsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

- mahsulotga oid innovatsiyalar;
- jarayonga oid innovatsiyalar;
- marketingga oid innovatsiyalar;
- tashkiliy innovatsiyalar.

Mahsulotga oid innovatsiyalar - texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar.

Jarayonga oid innovatsiyalar - texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta'lim usullarini ishlab chiqish va joriy

etishga, shuningdek texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar.

Marketingga oid innovatsiyalar - mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o'zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar.

Tashkiliy innovatsiyalar - biznesni tashkil etish va yuritish, ish o'rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar.

Innovatsion faoliyatda davlatning asosiy roli - korxonalarining innovatsion rivojlanishi uchun sharoitlarini ta'minlash. Korxonalarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va tartibga solish bo'yicha maqsadli harakatlarni amalga oshirish uchun davlat quyidagi vositalarga ega:

- kredit va soliq siyosatini rag'batlantirish;
- innovatsion faoliyat sub'yektlari va investorlar uchun iqtisodiy manfaatlar tizimi;
- yangi mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash.

Davlat ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion loyihalar: transport, kommunikatsiyalar, energetika, uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida zamonaviy texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni amalga oshirishda bevosita xo'jalik yurituvchi subyekt (investor) sifatida ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga, qulay foiz va soliq stavkalari, kredit resurslarining ko'lami korxonalarining innovatsion strategiyasini amalga oshirish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat - bu ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasidir.

Kichik bizbes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion faoliyati - bu yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki xizmatni, ularni ishlab

chiqarishning yangi usulini olish uchun ilmiy, ilmiy, texnik va intellektual salohiyatdan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari innovatsion texnologiyalar salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Innovatsion texnologiyalarga bo'lgan bozor talabi;
2. Yuqori malakali, bilimli va iqtidorli kadrlarning mavjudligi;
3. Innovatsion salohiyatini oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazaning mavjudligi;
4. Korxonalarda innovatsion salohiyatni oshirish uchun zaruriy ijtimoiy-iqtisodiy muhit va moliyaviy mablag'larning mavjudligi;
5. Davlatning bu jarayonni huquqiy kafolatlaydigan tegishli huquqiy asoslari mavjudligi;
6. Korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirishda zarur bo'ladigan innovatsion infratuzilmaning mavjudligi.
7. Korxonada xodimlarning innovatsion texnologiyalarni yaratishi uchun rag'batlantirish mexanizmi va motivatsiyaning yo'lga qo'yilganligi;
8. Yaratilgan innovatsion texnologiyalarning intellektual mulk sifatida himoya qilinganligi va ularning zaruriy huquqiy asoslari va boshqalardan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan innovatsion maxsulotlarni ishlab chiqishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ko'rsatilayotgan e'tiborlarni "startup" va "texnopark" lar faoliyati haqida berilgan ma'lumotlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Startup akselerator — bu biznesi boshqa kompaniyalarga (akselerator rezidentlariga) yordam berishdan iborat bo'lgan kompaniya. Startup akseleratorlar rezidentlarga jamoaga biznes-modelni "charxlash"da, zarur kontaktlarga ega bo'lishda va savdoni oshirishda yordam beradigan dasturni taklif qiladi. O'zbekistondagi birinchi akselerator esa 2015-yildagina paydo bo'ldi.

Biznes sohasida tayanch bilimga ega bo'lish. O'zbek startaplari uchun bu ayniqsa muhim. Bizda ko'pchilik biznes nima ekanligi, u qanday yaratilishi, monetizatsiya nimaligini umuman tushunmaydi. Ko'p kishilar qandaydir mobil

dasturni yaratish kifoya, u yog‘iga o‘zi pul ishlab topaveradi, deb o‘ylaydi. Mana shunday yosh tadbirkorlar uchun biznes-dasturlar juda muhim.

Texnopark — bu hududiy, ilmiy, texnologik va innovatsion loyihalarni amaliyotga tadbiiq etuvchi texnologik baza hisoblanadi. Texnopark — mulk kompleksi bo‘lib, u ilmiy-tadqiqot institutlari, sanoat obyektlari, biznes markazlari, ko‘rgazma maydonlari, ta‘lim muassasalari, va shuningdek, xizmat ko‘rsatish obyektlari: transport vositalari, o‘tish yo‘llari, aholi yashaydigan qishloqlar va qo‘riqlash xizmatini o‘z ichiga oladi. Xalqaro texnologik parklar assotsiatsiyasi innovatsion infratuzilma obyektini quyidagicha ta‘riflaydi: texnopark — bu tashkilot mutaxassislari tomonidan boshqariladi, uning asosiy maqsadi innovatsion madaniyatni rivojlantirish orqali mahalliy aholi yashash farovonligini yaxshilash va innovatsion biznes va ilmiy tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun texnopark universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, kompaniyalar va bozorlar o‘rtasida axborot va texnologiyalar bilim oqimini boshqaradi va rag‘batlantiradi. Yangi g‘oyalar yaratilishini osonlashtiradi va inkubatsiya jarayonlari orqali innovatsion kompaniyalarni yaratadi.

Texnopark, texnologik park — fan, ta‘lim va ishlab chikarishni ilmiy tashkilotlar, loyihakonstruktorlik byurolari, o‘quv yurtlari, ishlab chikarish korxonalari birlashmasi ko‘rinishida hududiy uyushtirish shakli. Yuqori malakali mutaxassislarning bir joyga to‘planishi natijasida ilmiy-texnika va texnikatexnologiya ishlanmalarini yaratish va ularni qo‘llashni jadallashtirish maqsadlarida tashkil etiladi. Texnopark rezidentlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-sonli “O‘zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoniga binoan quyidagilarni to‘lashdan ozod etilgan:

- barcha turdagi soliqlar va davlatning maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar, shuningdek yagona ijtimoiy to‘lov;

- o‘z ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, ehtiyot qismlar, uzellar, texnologik hujjatlar, dasturiy ta‘minot uchun bojxona to‘lovlari (bojxona yig‘imlaridan tashqari).

Shuningdek, Texnopark rezidentlari quyidagi huquqlarga ega:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport qilishdan tushgan tushumlar doirasida xalqaro to‘lov kartalariga naqd pulsiz shaklda xorijiy valyutada dividendlarni to‘lash;

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport qilishdan tushgan mablag‘ doirasida xorijiy mutaxassislarga xorijda ochilgan xalqaro to‘lov kartalariga naqdsiz shaklda xorijiy valyutada ish haqi to‘lash;

- eksport shartnomasiz Internetning xalqaro axborot tarmog‘idagi onlayn-do‘konlar orqali xorijiy valyuta bo‘yicha ishlar va xizmatlar eksportini amalga oshirish.

Rezidentlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bo‘yicha olingan ish haqi ko‘rinishidagi daromadlar 7,5 foiz miqdorida belgilangan jismoniy shaxslarning daromad solig‘iga tortiladi va jismoniy shaxslarning soliq solinadigan maqsadlarda belgilangan yillik umumiy daromadlari tarkibiga kiritilmaydi¹⁶.

¹⁶<https://nsp.gov.uz/technos/info>

1.3. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini ta’minlashning me’yoriy-huquqiy asoslari.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining erkin raqobatga bardosh beraolish imkoniyatlarini va muhitini yaratishda birinchi o‘rinda davlatning me’yoriy huquqiy hujjatlar asosida ta’minlashi muhimdir. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratishda bir qancha samalari ishlar olib borilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishda eng muhim vazifalardan biri bu ularni huquqiy jihatdan himoya qilish, ortiqcha tekshiruvlardan ozod qilish kabi vazifalardir. Bu borada davlatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari uchun chiqargan qonunlari muhim ahamiyatga egadir.

Joriy yilning 20-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292- son hamda “ Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida “ Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab quvvatlash” kompleksi dasturini amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 37-son qarori qabul qilindi. Bunga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlariga bir qancha imkoniyat va vazifalari qonuniy belgilab qo‘yildi. Ulardan ba’zilari quyida ko‘rsatilgan:

- “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Dasturni samarali amalga oshirish va doimiy ravishda takomillashtirib borish bo‘yicha asosiy tayanch bank etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
- “Biznesni rivojlantirish banki” ATBga joylashtirilgan: 223 mlrd so‘m miqdoridagi subordinar qarzning asosiy qarz to‘lovini 2030-yildan boshlab 5 yil davomida teng ulushlarda qaytarish;

320,9 mlrd so‘m miqdoridagi kredit liniyasi mablag‘larini qaytarishning so‘nggi muddatini o‘zgartirmagan holda, asosiy qarz to‘lovini 2030-yildan boshlab teng ulushlarda to‘lab berish sharti bilan subordinar qarz sifatida qayta rasmiylashtirish;

- “Mikrokreditbank” ATBga 977 mlrd so‘m miqdoridagi resurs joylashtirish maqsadida tuzilgan kredit va depozit shartnomalari bo‘yicha qoldiq summasini shartnomalarning dastlabki shartlarini o‘zgarishsiz qoldirgan holda subordinar qarz sifatida qayta rasmiylashtirish;

- “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida “Mikrokreditbank” ATBga joylashtirilgan 425 mlrd so‘m miqdoridagi depozit mablag‘larni qaytarish muddatini 7 yilga uzaytirish.

- “Biznesni rivojlantirish banki” ATB:

ikki oy muddatda xalqaro moliya institutlari, konsalting kompaniyalari va ekspertlarni jalb etgan holda bankning aktivlari, operatsion va biznes jarayonlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, samarasiz xarajatlarni qisqartirish va bank tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish chora-tadbirlarini;

2024-yil 1-aprelga qadar 2024 — 2026-yillarda bankni rivojlantirish va raqamli transformatsiya qilish strategiyasini tasdiqlasin.

- 24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag‘lari miqdori 1 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta‘minlagan kichik tadbirkorlik subyektlarining yangi loyihalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihalariga bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari va yer maydonlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ko‘rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20 foizgacha, biroq 1 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan qiymatda ulushdor bo‘lib kirish;

- innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘larini ajratish;

- Biznesni rivojlantirish banki uch oy muddatda xalqaro moliya institutlarining texnik ko‘magi va boshqa manbalar hisobidan biznes jarayonlarini

avtomatlashtirgan holda tashkil etish va muvofiqlashtirib borish uchun Biznes portalning ishga tushirilishini ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasi Adlya vazirligi tomonidan Tadbirkorlik kodeksi loyihasi ishlab chiqildi va jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Ushbu kodeksning asosiy vazifalari jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo'lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, xususiy mulk, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Tadbirkorlik kodeksining qabul qilinishi tarqoq holda bo'lgan qonunchilik hujjatlarini yagona hujjatga birlashtirish, tadbirkorlik sohasidagi qonunchilik hujjatlarini barqarorlashtirish, davlatning tadbirkorlik sohasiga aralashuvini kamaytirish, shuningdek tadbirkorlik huquqi sohasida yagona yondashuvni belgilashga xizmat qiladi, deyiladi vazirlik xabarida.

Tadbirkorlik kodeksi loyihasi bilan quyidagilar nazarda tutilmoqda:

kodeks loyihasi bilan yaxlit 9 ta amaldagi qonun, 2 ta yangi qonun loyihalari va 10 dan ortiq qonunosti hujjatlari birlashtirilib, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdan boshlab uni tugatishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan;

ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga asosan, tadbirkorlik subyektlari kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratilmoqda;

tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllari bazasi ixchamlashtirilib, tadbirkorlar ichida ommabop bo'lmagan "xo'jalik shirkati" tashkiliy-huquqiy shakli bekor qilinmoqda;

yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlarini belgilagan holda ularga qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqi berilmoqda;

tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning chegaralari hamda tartibga solish shakllari belgilanmoqda;

43 ta davlat organining 146 ta nazorat funksiyalari va Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida o'tkaziladigan 18 turdagi tekshiruvlar ro'yxatlari mazkur

kodeksga ilova sifatida tasdiqlanmoqda. Bunda ro'yxatga kiritilmagan barcha tekshiruvlar biznes-ombudsman bilan kelishilgan tartibda amalga oshirilishi belgilanmoqda;

davlat nazoratining 4 ta shakli belgilanib, shundan faqat ma'lumotlarni tahlil qilish va tekshiruvda aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan tadbirkorga nisbatan huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi belgilanmoqda.

2021 yilda adliya vaziri Ruslanbek Davletov Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqilishi haqida so'z yuritarkan ushbu kodeks «tadbirkorlar uchun yagona huquqiy manba» bo'lishi haqida gapirgan edi. Uning so'zlariga ko'ra, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini boshqaruvchi qonunchilik hujjatlari tarqoq va soni juda ko'p. Xususan, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5000 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Adliya vaziriga ko'ra, hujjatlarning haddan ziyod ko'p bo'lishi ular o'rtasida qarama-qarshiliklarni vujudga keltirib, tadbirkorlik amaliyotini qiyinlashtirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarining haqli e'tirozlariga sabab bo'ladi. Vazir «tadbirkor ishlashi, o'z g'oyalari amalga oshirishi kerakligini» qayd etgan edi.

2021 yil 21 oktabr kuni Senatning 20-yalpi majlisida senatorlar «Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunning ba'zi normalarini qayta ko'rib chiqish kerak deb hisoblab, uni qaytargandi. O'shanda ular Tadbirkorlik kodeksi qabul qilinsa, ijtimoiy tadbirkorlikka oid normalarni unga kiritishni ma'qul ko'rgandi. Majlisda adliya vaziri Ruslanbek Davletov senatorlarning qonunni qabul qilishga qarshi bildirgan har bir argumentini rad etib, ayrim siyosatchilar «xalqdan kelib chiqayotgan yangi g'oyalarni tushunmasligini» ta'kidlagandi. Jumladan, vazir kodeks qabul qilingunga qadar nogironligi bo'lgan shaxslarning tadbirkorligi va ularga ish beruvchilarni qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidlagandi.

**O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
sub’yektlari uchun chiqarilgan huquqiy hujjatlar¹⁷.**

Bosqich	Yillar	Tegishli me’yoriy hujjat
I	1992-1995	“O‘zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to‘g‘risidagi Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldagi 85-son qaroriga 2-sonli ilova)
II	1995-1998	O‘zbekiston Respublikasining “Kichik va xususiy Tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Qonuni (1995 yil 21 dekabr)
III	1998-2003	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (1998 yil 9 aprel)
IV	2003-2011	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlariga tegishli bo‘lgan korxonalarva tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori (2003 yil 11 oktyabr)
V	2011-2019	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub’yektlariga tegishli bo‘lgan korxonalarva tashkilotlar klassifikatsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori (2013 yil 14 iyun), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son Farmoni) Qarori (2014 yil 3 iyul), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni)
VI	2020-yildan keying yillar	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020 yil 19 martdagi PF-5969-son Farmoni), O‘zbekiston Respublikasi

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz

	<p>Prezidentning “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llabquvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020 yil 3 apreldagi PF-5978-son Farmoni). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar bilan 2022 yildagi “Ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022 yil 30 avgustdagi PQ-364-son Qarori)</p>
--	---

2023-yil 18-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag‘batlantirish maqsadida:

1. Savdo-sanoat palatasi, Soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilning 2024-yil 1-fevraldan boshlab qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va qo‘shimcha rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini (keyingi o‘rinlarda — reyting) joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi. Va unga ko‘ra quyidagilar belgilandi:

a) reyting doirasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ajratiladi:

“AAA”, “AA” va “A” toifalar — yuqori barqarorlik reytingi;

“VVV”, “VV” va “V” toifalar — o‘rta barqarorlik reytingi;

“SSS”, “SS” va “S” toifalar — qoniqarli barqarorlik reytingi;

“D” toifa — quyi barqarorlik reytingi;

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab quvvatlash maqsadida ko‘plab prezident farmon va qarorlari

ishlab chiqilgan, soliq konsepsiyasida ham imtiyozlar keltirilgan, Adlya vazirligi tomonidan Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqishi muhokamaga qo'yilgan.

I-BOB BO'YICHA XULOSALAR.

Ushbu bobning asosiy xulosalari quyidagilar:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligi va uni ta'minlashning nazariy asoslari yoritib berilgan.

- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mikrofirmalar, yakka tadbirkorlik, yirik firmalar terminlari bir biridan farqlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'rsatib berilgan va ularga iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining, Jaxon banki tashkilotining, Yevropa ittifoqi ga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvoffiq tariff berilgan.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining foydalanishi mumkin bo'lgan 10 ta raqobat afzalliklari keltirilgan va har bir afzalliklarga to'xtalib o'tilgan.

2. Tadbirkorlik so'ziga berilgan tariflar keltirilib, ularga muallif tomonidan ham o'z tarifi kiritilgan.

3. Tadbirkorlik so'ziga tarif berilganda eng ko'p ishlatilgan kalit so'zlar ro'yxati ham berilgan.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsiyalarning o'rni ko'rsatib berilgan.

- "innovatsiya", "kashfiyot", "ixtiro" so'zlariga ta'rif berilgan.

- Innovatsiya turlari ko'rsatib berilgan va har bir turiga alohida to'xtalib o'tilgan.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion faoliyatda davlatning asosiy roli ko'rsatib berilgan.

- Davlatning innovatsiyalarni boshqarish sohasidagi funksiyalari ko'rsatib berilgan.

3. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashnin me'yoriy-huquqiy asoslari ko'rsatib berilgan.

- 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292- son hamda “ Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida “ Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab quvvatlash” kompleksi dasturini amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 37-son qarori haqida to‘xtalib o‘tilgan.

- O‘zbekiston Respublikasi Adlya vazirligi tomonidan Tadbirkorlik kodeksi loyihasi haqida va tadbirkorlik kodeksi qabul qilinishidan nazarda tutilgan vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan.

- O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari uchun chiqarilgan huquqiy hujjatlar jadvali tuzilgan.

**II-BOB. IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA
INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY O'SISH
SUR'ATLARIGA TA'SIRI TAHLILI**

**2.1. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining innovatsion rivojlanish holati tahlili**

Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari soni yildan yilga o'sib bormoqda. Mazkur jarayon sabablari va dinamikasini o'rganish uchun ekonometrik tahlil o'tkazish maqsadga muvoffiq bo'ladi.

Dastlabki ma'lumotlar sifatida O'zbekistonda so'nggi 10 yildagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni haqidagi ma'lumotlardan foydalanildi. Tarmoqlardagi ya'ni, o'rmon, qishloq va baliq xo'jaligi, sanoat, qurilish, savdo, tashish va saqlashdagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni esa tahlil uchun tanlab olingan omillar sifatida ko'rsatilgan. O'zbekistondagi 2014-2023-yillardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazamiz. Ushbu ma'lumotlarni 2.1.1 – jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2.1.1- jadval

**O'zbekistondagi iqtisodiy tarmoqlardagi kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlarining soni¹⁸**

Yillar	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni	Sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni	Qurilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni	Savdoda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni	tashish va saqlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni
N	y1	y2	y3	y4	y5
2014	16627	36128	18374	57376	7813
2015	16739	38977	19616	57690	8486

¹⁸ Muallif ishlamasi.

2016	17357	41066	20863	58930	9488
2017	17962	42847	21790	61214	10631
2018	20530	48566	23807	62714	11779
2019	23975	56233	28955	70457	13121
2020	28847	69970	36021	100573	15157
2021	40719	82746	40695	131597	17056
2022	45897	90313	43410	156539	18045
2023	53199	97911	46637	182198	20451

Tavsifiy statistika natijalarini esa 2.1.2-jadvalga joylashtirilgan.

2.1.2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni bo'yicha tavsifiy statistikasi¹⁹

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni.		Sanoatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni.		Qurilishda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni.	
Ko'rsatkichlar	Qiymat	Ko'rsatkichlar	Qiymat	Ko'rsatkichlar	Qiymat
Среднее	28185,2	Среднее	60475,7	Среднее	30016,8
Стандартная ошибка	4294,223	Стандартная ошибка	7287,834	Стандартная ошибка	3400,288
Медиана	22252,5	Медиана	52399,5	Медиана	26381
Мода	#Н/Д	Мода	#Н/Д	Мода	#Н/Д
Стандартное отклонение	13579,52	Стандартное отклонение	23046,16	Стандартное отклонение	10752,65
Дисперсия выборки	1,84E+08	Дисперсия выборки	5,31E+08	Дисперсия выборки	1,16E+08
Эксцесс	-0,6294	Эксцесс	-1,37248	Эксцесс	-1,62989
Асимметричность	0,957952	Асимметричность	0,590026	Асимметричность	0,464706
Интервал	36572	Интервал	61783	Интервал	28263
Минимум	16627	Минимум	36128	Минимум	18374
Максимум	53199	Максимум	97911	Максимум	46637
Сумма	281852	Сумма	604757	Сумма	300168
Счет	10	Счет	10	Счет	10

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymati, medianasi, maksimal va minimal qiymatlarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanish koeffitsiyenti (har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Skewness – assimetriya koeffitsienti bo'lib, u nolga teng bo'lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsient 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot assimetrik hisoblanadi. (ya'ni simmetrik emas). Agar simmetriya koeffitsienti 0 dan katta, ya'ni musbat bo'lsa, u holda o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi o'ng tomonga surilgan bo'ladi. 0 dan kichik, ya'ni manfiy bo'lsa, u o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo'ladi. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, bizning olgan natijalarimizga ko'ra, barcha omillarning assimetriya koeffitsienti musbat qiymatga ega bo'lganligi sababli, omillarning taqsimoti simmetrik emas. Ushbu o'zgarishlar kuzatilgan yillarda O'zbekistondagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni ba'zi yillarda keskin ortgan bo'lsa, ba'zi yillarda esa o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmagan. Ekstsess koeffitsienti (normal taqsimotda 3 ga teng) taqsimot cho'qqisining o'tkirligini o'lchaydi. Agar ekstsess 199 koeffitsienti 0 dan katta bo'lsa, u holda taqsimot o'tkir cho'qqili bo'ladi, 0 dan kichik bo'lsa, tekis bo'ladi (tekis cho'qqi). Jak-Bera statistikasi normal taqsimotni aniqlaydi (ya'ni, tanlama normal taqsimlanganligi to'g'risidagi gipotezani tekshirish uchun foydalaniladi). Ehtimollik tanlamaning normal taqsimlanganligi to'g'risidagi gipotezani rad etib xato qilish ehtimolini bildiradi (ushbu holda xato qilish ehtimoli 0,0000 ga teng, bu esa chegaraviy daraja 0,05 dan ancha kichik). Xulosa qilsak: agar tanlama normal taqsimlanganligi to'g'risidagi 0 - gipotezani rad etsak xato qilmagan bo'lamiz. Tahlil qilinayotgan belgi (o'zgaruvchi) qiymatining taqsimoti normal taqsimot qonuniga bo'ysunmaydi. Yig'indi barcha kuzatuvlar qiymatlari yig'indisi. Standart cheklanish chetlanishi o'rtacha qiymatdan qator darajalarining chetlanish kvadratlari yig'indisi.

Taraqqiy etgab mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanishi muhim o'ringa egadir. Bu sohadagi rivojlanishni qay darajada ekanligini bilish uchun esa tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishini aniqlash muhim iqtisodiy masala bo'lib, bu kelajakda ushbu

tarmoqda qanday maxsulot va xizmatlarga ehtiyoj bo'lishini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur sohada barqaror ko'rsatkichlarga erishish uchun tarkibiy siyosat olib boorish yo'nalishlarini ko'rsatib berish imkonini beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tarmoqlardagi tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishini aniqlash muhim iqtisodiy masala bo'lib, bu orqali ushbu soha subyektlarining qaysi tarmoqda qay darajada rivojlanayotganini va kelajakda qaysi sohalarni rivojlantirish kerakligini aniqlash imkonini beradi. Ma'lumki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sohalardagi ulushiga ko'ra tarkibiy o'zgarishlarni tahlil qilish ishlab chiqarish tarkibidagi ulushlarning umumiy o'zgarishini yaxlit holda baholash imkonini yaratadi. Odatda tarkibiy o'zgarishlarning chiziqli, kvadratik, shuningdek indeks ko'rinishidagi Salai, Ryabtsev, Kazinets, Gatev indekslaridan foydalaniladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sohalardagi umumiy siljishlarini baholash uchun B.M.Ryabsevning quyidagi tuzilmaviy siljishlar indeksidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi²⁰:

$$I_R = \sqrt{\frac{\sum(d_{i1}-d_{i0})^2}{\sum_i^n(d_{i1}+d_{i0})^2}} \quad (2.1.1)$$

Mazkur indeks $0 \leq I \leq 1$ oraliqda o'zgarib turadi hamda ushbu indeksning 1 soniga yaqinroq joylashuvi tuzilmada tarkibiy o'zgarishlarning yuqoriligidan dalolat beradi va aksincha.

2.1.3-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi ulushi²¹.

Ko'rsat kichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM	60,8	61,9	60,8	60,9	61,9	64,6	66,8	65,3	62,4	56	54,8	54,1	51,8
Sanoat	26,6	28,6	29,7	33	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,4	26
Qurilish	52,5	67,6	70	70,6	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,5	71,5
Bandlik	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78	76,3	76,2	74,5	74,5	73,9
Ekspart	13,7	18,8	14	26,2	27	27	26	22	27,2	27	20,5	20	29,6

²⁰ Рябцев В.М. Критериальные подходы к оценке меры различий структуры региональной экономики по формам собственности. // Материалы Всероссийского научного семинара «Реализация и эффективность новых форм экономических отношений». - Самара, 1996. -С. 13.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlari.

Import	35,8	34,3	38,6	42,4	45,4	44,5	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	45,3	49,4
--------	------	------	------	------	------	------	------	------	------	------	------	------	------

1-jadvalga ko'ra 5 ta ko'rsatkich (YAIM, sanoat, qurilish, bandlik, eksport, import) va ular bo'yicha 2010-2022 yillar oralig'idagi davr tanlab olindi. Endi ushbu ko'rsatkichlarga ko'ra Ryabsev indeksini hisoblaymiz (2.1.4-jadval).

2.1.4-jadval

Ryabtsev indeksi qiymatini hisoblash natijalari²²

Ko'rsatkichlar	2010	2011	$\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2$	$\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2$	$\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}$	$\sqrt{\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}}$
YAIM	60,8	61,9	1,21	15055,29	0,00431	0,06565
Sanoat	26,6	28,6	4	3047,04		
Qurilish	52,5	67,6	228,01	14424,01		
Bandlik	74,3	75,1	0,64	22320,36		
Eksport	13,7	18,8	26,01	1056,25		
Import	35,8	34,3	2,25	4914,01		
JAMI:			262,12	60816,96		

Ryabtsev indeksi qiymatini hisoblash natijalari²³

Ko'rsatkichlar	2015	2016	$\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2$	$\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2$	$\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}$	$\sqrt{\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}}$
YAIM	64,6	66,8	4,84	5132,29	0,001406	0,037491
Sanoat	40,6	45,3	22,09	4541,412		
Qurilish	66,7	66,9	0,04	4480,964		
Bandlik	77,9	78,2	0,09	6129,324		
Eksport	27	26	1	729		
Import	44,5	46,8	5,29	2713,368		
JAMI:			33,35	23726,36		

Ryabtsev indeksi qiymatini hisoblash natijalari²⁴

Ko'rsatkichlar	2021	2022	$\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2$	$\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2$	$\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}$	$\sqrt{\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}}$
YAIM	54,1	51,8	5,29	11214,81	0,001723	0,041505
Sanoat	27,4	26	1,96	2851,56		
Qurilish	72,5	71,5	1	20736		
Bandlik	74,5	73,9	0,36	22022,56		
Eksport	20	29,6	92,16	2460,16		
Import	45,3	49,4	16,81	8968,09		

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

JAMI:			117,58	68253,18		
--------------	--	--	---------------	-----------------	--	--

Ryabtsev indeksi qiymatini hisoblash natijalari²⁵

Ko'rsatkichlar	2016	2022	$\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2$	$\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2$	$\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}$	$\sqrt{\frac{\sum_j^n (d_{2j} - d_{1j})^2}{\sum_j^n (d_{2j} + d_{1j})^2}}$
YaIM	66,8	51,8	225	14065,96	0,008902	0,094353
Sanoat	45,3	26	372,49	5083,69		
Qurilish	66,9	71,5	21,16	19154,56		
Bandlik	78,2	73,9	18,49	23134,41		
Eksport	26	29,6	12,96	3091,36		
Import	46,8	49,4	6,76	9254,44		
JAMI:			656,86	73784,42		

Olingan natijalarni talqin qilish uchun Ryabtsev indeksi bo'yicha tuzilmaviy o'zgarishlar me'yorini baholash shkalasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, u 2.1.5-jadvalda o'z ifodasini topgan. Ryabtsev indeksi bo'yicha olingan natijalar 1-rasmdagi grafikda o'z ifodasini topgan va unga ko'ra 2010-2011-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish ulushining tarmoqlardagi umumiy siljishlari 0,065 punktini, 2015-2016-yillarda 0,037 punktini hamda 2021-2022-yillarda 0,041 punktini, 2016-2022-yillarda 0,094 punktini tashkil etdi.


2.1.5-jadval

Ryabtsev indeksi bo'yicha tuzilmaviy o'zgarishlar me'yorini baholash shkalasi²⁶.

Koefitsent qiymatlarining intervali	Tuzilmaviy o'zgarishlarning me'yoriy tavsifi
0.030 gacha	O'xshash tuzilma
0.031-0.070	Juda past darajadagi tafovut
0.071-0.150	Past darajadagi tafovut
0.151-0.300	Ahamiyatli darajadagi tafovut
0.301-0.500	Sezilarli darajadagi tafovut
0.501-0.700	Juda sezilarli darajadagi tafovut
0.701-0.900	Teskari tuzilma
0.901 va undan yuqori	To'la teskari tuzilma

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

²⁶ Рябцева В.М., Чудилина Д. Региональная статистика. - М., «МНД», 2001. -С. 153.



2.1.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tarmoqlardagi ulushining umumiy siljishlar dinamikasi. Ryabsev indeksi²⁷.

Ryabsev indeksi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tuzilmasidagi siljishlarning to'plam tuzilmasi maksimal o'zgarishi mumkin bo'lgan holatga nisbatan qanchaga o'zgarganligini ko'rsatadi. Agar ushbu umumlashtiruvchi indeksni nazariy jihatdan 0 va 1 qiymatlar oralig'ida o'zgarishini inobatga oladigan bo'lsak, u holda tahlil qilinayotgan davrlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha umumiy siljishlari haqida ma'lum bir xulosaga kelish qiyin emas. Jumladan, taqqoslanayotgan tarkibiy siljishlar orasidagi farq qanchalik kichik bo'lsa, Ryabsev indeksining qiymati nolga yaqin va aksincha, farq qanchalik katta bo'lsa, shunchalik birga yaqin bo'ladi. Biz ko'rib chiqqan to'rtta davrlar orasida qiyoslash amalga oshiradigan bo'lsak, 2010-2011-yillar davomida tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy tarmoqlarda sezilarli darajada kuzatilgan va 0,065 punktga erishgan. Bu Ryabsev indeksi bo'yicha tuzilmaviy o'zgarishlar shkalasida juda past darajadagi tafovutni ko'rsatmoqda. 2016-2022-yillardagi ko'rsatkichga to'xtaladigan bo'lsak, 0,094 punktni tashkil qilib, shkala bo'yicha past darajadagi tafovutga to'g'ri kelganini ko'rish mumkin.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish va shu orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha mavjud muammolar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan bog‘liq muammolarni moliyaviy muammolar, texnologik muammolar, boshqaruv va tashkil etish muammolari, raqobat muammolari, kadrlar va kadrlar tayyorlash muammolari; Marketing muammolari, ilmiy-tadqiqot va qaror qabul qilish muammolari deb ajratish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlaridagi asosiy muammolar:

- Yangi texnologiyalarning yetishmasligi;
- Ishlab chiqarish hajmining ozligi;
- Bozor sektorlarida tadqiqotlar o‘tkazilmasligi;
- Tadqiqot va izlanishlar uchun yetarlicha mablag‘ ajratilmasligi;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari imkoniyatlariga to‘g‘ri baho berilmasligi;
- Xom-ashyo zaxirasi va ularni yetkazib berishdagi muammolar;
- Xalqaro standartlarga javob beraoladigan mahsulotlarni ishlab chiqaraolmaslik va ularni saqlash uchun omborxonalarining yetishmasligi;

Bu kabi muammolarning yechimi sifatida innovatsion tovarlarni yaratish va mamlakatda soliq tizimi, kredit berish imtiyozlarini talab qiladi. Buning uchun ilmiy tadqiqot va izlanish ishlariga (R&D) kerakli bo‘lgan e‘tiborni qaratish va moliyalashtirish va bir vaqtning o‘zida texnologiyalarni yangilash, iste‘molchilarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda takrorlanmas mahsulot yaratish va ularning ahamiyatlilik darajasini oshirish, internet bozorlar yaratish kabi yo‘llarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Kichik biznesning yuqori samaradorligini e‘tiborga olib, mamlakatimiz rahbariyati doimiy ravishda uni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora - tadbirlarni katta e‘tibor bilan amalga oshirib kelmoqda.

Ma‘lumki, kichik biznesning rivojlanishiga ko‘plab omillar ta‘sir qiladi va ularning ichida yetakchi o‘rinni soliqqa tortishni takomillashtirish

jarayonlari egallaydi, chunki O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, davlat byudjeti daromadlarini asosan soliq tushimlari beradi.

2.2.1-jadval

O‘zbekiston davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy ko‘rsatkichlari, (ja‘miga nisbatan % da)²⁸

№		2018	2022
	Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalaridan tashqari	100,0	100,0
1.	Tog‘ri soliqlar	25,2	28,2
2.	Egri soliqlar	54,3	45,8
3.	Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	13,8	16,6
4.	Ustama foyda solig‘i	1,5	-
5.	Soliqsiz to‘lovlar	5,2	9,2

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pandemiyadan oldin byudjet daromadlarining 94,8 foizini soliq tushumlari berar edi, pandemiya sharoitida ko‘p korxonalar to‘xtab qoldi, natijada ijtimoiy davlat bo‘lgan O‘zbekiston o‘z xalqini moddiy qo‘llash maqsadida byudjet daromadlarini yetarli darajada ushlab turish uchun soliqsiz to‘lovlar hisobiga to‘ldirib turish choralarini ko‘rishga majbur bo‘ldi (oltin sotish, chetdan qarz olish kabilar). Pandemiyadan keyin mamlakatimiz iqtisodiyotini tez sur‘atlar bilan tiklash, uning tarkibini takomillashtirish hamda yuksaltirish maqsadida ularning moddiy asosi bo‘lgan byudjet daromadlarini tez sur‘atlar bilan ko‘paytirishning asosiy omili soliq tushumlarini ko‘paytirish maqsadida davlatimiz doimiy ravishda chora tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi www.soliq.uz

takomillashtirishning Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq yangi Soliq Konsepsiyasi ishlab chiqildi va uning asosida O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi yangi tahrirda ishlab chiqildi va 2019 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritildi. Soliqqa tortishni tubdan takomilladhtirishni ko‘zda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq Konsepsiyasi olimlar tomonidan o‘rganilib, uni asosan yutuqli taraflari, ya’ni hozirgi kunda butun dunyoda katta samara berayotgan soliq tizimini “qog‘oz aylanmasi” dan to‘liq ozod etish, hisobot shakllarini qisqartirish va soddalashtirish, soliq ma‘murchiligi mexanizmlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi soliq tizimini raqamlashtirishni keng joriy qilish nihoyatda katta samara berishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tkazdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 22 avgustda tadbirkorlar bilan o‘tkazgan uchrashuvida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tdi:

1. Mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarga mikrobiznes, kichik biznes va o‘rta biznes maqomini beruvchi me‘zon (ko‘rsatkich) lar belgilab berildi.
2. Mamlakatda kichik va o‘rta biznes sub‘yektlai soni ko‘paydi. Ammo son ko‘payishi mahsulot ko‘payishiga ta’sir qildimi yoki yo‘qmi, ko‘rsatilmadi.
3. Barcha mamlakatlardagidek bizda ham kichik va o‘rta biznes sub‘yektlari sonini ko‘paytirish lozimligi ko‘rsatib o‘tildi. Ammo bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, mahalliy investorlarning ko‘pchiligining o‘rta biznes sub‘yektlarini ochishga mablag‘lari yetmaydi va ular, agar davlat kichik biznesni soliqqa tortishning hozirgi paytdagi muammolarini ijobiy hal qilib bersa, ular soni tez kopayadi va ishlab turganlari o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarishni keskin oshirishga erishadilar. Bu muammolarni quyida ko‘rsatib o‘tamiz.

Ma’lumki, hozir amalda bo‘lgan yangi Soliq Konsepsiyasi va Soliq Kodeksining yangi matnida bir qator samarali yutuqlar bilan birga, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan, zudlik bilan tuzatish lozim bo‘lgan muhim prinsipial xatolar mavjud. Masalan, yuqoridagi ikkala hujjatda

yirik va kichik biznes sub'yektlari soliq yukining miqdorini tenglashtirish talab etiladi. Natijada, hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qollanilayotgan soliq turi biznes yuritishning maqomiga (yirik, o'rta yoki kichik) emas, balki sotilgan mahsulotning yillik aylanmasi miqdoriga bog'liq bo'lib qolmoqda.

2.2.2-jadval

Hozirgi payda O'zbekiston Respublikasida yillik aylanma miqdoriga qarab qo'llaniladigan soliq turlari²⁹.

№	Yillik aylanma miqdori	Soliq turlari
1	300 mln so'mgacha	Qat'iy belgilangan soliq
2	300 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha	Aylanma (oborot) solig'i
3	1 mlrd so'mdan ko'p	Umum belgilangan barcha soliqlar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yillik aylanma (oborot) miqdori o'sgan sari qo'llaniladigan soliq turlari ham o'zgarib bormoqda, ya'ni qo'llaniladigan soliq turi sub'yekt maqomiga qarab emas, balki aylanma mablag' miqdoriga qarab o'zgsarmoqda, fikrimizcha, bu hol to'g'ri emas, chunki:

- hattoki 3-5 kishi ishlaydigan qimmatbaho xom-ashyo ishlatuvchi (zebu - ziynat buyumlari ishlab chiqaruvchi) xo'jalik yurituvchi sub'yekt 1 milliard so'mlik mahsulotni 1 -10 kun ichida ishlab chiqarishi mumkin;
- doimiy davom etayotgan inflyatsiya natijasida 1 milliard so'mning zalvari (qiymati) ni to'g'ri aniqlab bo'lmaydi. Bundan tashqari, mahalliy investorlarning joylarda "o'z ish joylari" ni ochishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi, chunki yangi Soliq Konsepsiyasida soliqqa tortish sohasida kichik biznesga hech qanday imtiyoz berishni ko'zda tutilmagan;

²⁹ O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi www.Soliq.uz

Soliq yukini oshirmaslik maqsadida quyidagi qonunchilikda ko'zda tutilmagan faoliyat bilan shug'ullanishga, ya'ni o'z aylanma (oborot)larining haqiqiy miqdorini turli yo'llar bilan yashirishga majbur bo'lmoqdalar:

- aylanma (oborot) ning bir qismini keyingi hisob davriga ko'chirish;
- mahsulot sotishdan tushadigan aylanmaning kassa apparati yoki bank orqali rasmiylashtirmaslik (naqd pulga sotish);
- agar hozir qat'iy belgilangan soliq to'lab turgan kichik korxonalar quvvati 300 million so'mdan oshib ketsa, uni quvvati 300 million so'mdan kam bo'lgan bir necha korxonalarga parchalab tashlash yo'li bilan, yoki hozir aylanmadan soliq to'lovchi, quvvati 1 milliardgacha bo'lgan korxonaning quvvati 1 milliarddan oshib ketsa, bu korxonalar quvvatini 1 milliarddan kam bo'lgan bir necha korxonalarga parchalab tashlash yo'li bilan soliq yukini kamaytirishga erishmoqda.

Amalda shunday usul qo'llanilganligini misol orqali isbotlab berishimiz mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, yangi Soliq Konsepsiyasi kuchga kirgan 2019 yilda O'zbekiston Respublikasida 93 ming dona, ya'ni oldingi yilga nisbatan 2 baravar ko'p yangi kichik biznes subyektlari barpo etilgan. Ammo, yuqorida keltirilgan yangi korxonalarining bir qismi yangidan qurilgan bo'lmay, balki ishlab turgan korxonalarini parchalab tashlash natijasida paydo bo'lgan. Bu fikrni isbotlash uchun quyidagi raqamlarni keltirishimiz mumkin. Yangi Soliq Konsepsiyasi kuchga kirmagan 2018 yilda kichik tadbirkorlikning O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda esa 54,2 foizni tashkil etgan, ya'ni yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining deyarli 2 baravar o'sishi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini tegishli ravishda o'sishiga olib kelmadi, balki o'sish o'rniga 2,7 foizga pasayishiga olib keldi. Undan tashqari, 2018 yilda kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlovchilar, iqtisodiyotda barcha ishlovchilarning 77 foizini tashkil etar edi, ishlab chiqarilgan barcha sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi va qishloq xo'jalik mahsulotlarimning 98 foizini ishlab chiqargan edilar.

2019 yilda sohada ishlovchilar soni 2018 yilga nisbatan deyarli o'zgarmay, ya'ni kamaymagan bo'lsa ham, kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,7 foizga pasaygan. Bu ko'rsatkich yuqorida keltirilgan fikrimizning to'g'riligini isbotlab turibdi.

Bu borada chora tadbirlar ham ko'rilmoqda, Masalan, 2023 yil 22 avgustda mamlakatimiz Prezidentining tadbirkorlar bilan bo'lgan ochiq uchrashuvida quyidagi vaqtinchalik choralar haqida e'lon qilingan edi:

- yillik aylanmasi (oboroti) miqdori 1 milliard so'mdan oshgandan so'ng soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibiga o'tkazilgan korxonalar bir yil davomida foyda solig'ini 2 baravar kam to'laydilar;
- kichik biznesdan o'rta biznesga o'tgan korxonalar 2023 yil 1 yanvardan boshlab 2 yil davomida foyda solig'ining yarmisini to'laydilar;
- 2023 yil 1 iyuldan boshlab qurilishi o'z vaqtida tugallanmagan qurilish obyektlarining mol-mulk va foydalanilmayotgan yer uchastkalaridan olinadigan yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo'llash bekor qilindi;
- 19 ming tadbirkorlarning ilgari oshirilgan stavkalar bilan 2 trillion so'mlik ortiqcha hisoblab chiqilgan qarzlari to'liq kechib yuborildi

Ammo bu choralar o'z nomi bilan vaqtinchalik choralar bo'lib kelmoqda.

Shu bilan birga, soliqqa tortish muammolarini hal qilishga qaratilgan bir qator ijobiy chora-tadbirlar ham qabul qilinganini ko'rsatib o'tish lozim. Masalan:

- 2023 yil 1 yanvardan boshlab aylanma (oborot) solig'ining ilgarigi 4 dan 25 foizgacha bo'lgan stavkalar o'rniga yagona 4 foizlik stavka qo'llanishi ko'zda tutilgan;
- uzoq tumanlarda istiqomat qiluvchi va alohida kategoriyadagi tadbirkorlar uchun amaldagi 1 va 2 foizlik stavkalar saqlab qolindi. Iqtisodiyotimizning yetakchi sohasi bo'lgan - kichik biznesni soliqqa tortishdagi muammolarni tubdan hal qilish uchun kichik biznesning o'ziga xos

xususiyatlariga chuqur ahamiyat beradigan soliqqa tortish tartibini joriy qilish lozim.

Agar, tadbirkor deb maksimal foyda olish maqsadida qonunchilik tomonidan man qilinmagan biror - bir faoliyat olib boruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs tushunilishiga e'tibor qilsak, har bir tadbirkorlik subyekti maksimal foyda olish maqsadida doimiy ravishda o'z ishlab chiqarishini rivojlantirishga harakat qiladi, ammo bunga hozir O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan Soliq Kodeksi tomonidan kichik biznes aylanmasi bo'yicha qo'yilgan cheklovlar yo'l qo'ymaydi.

Shuning uchun, agar kichik biznesni va shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishni xoxlar ekanmiz, xo'jalik yurituvchi subyektlarga "kichik biznes subyekti" maqomini beruvchi kriteriy sifatida, faqat "ishlovchilar soni" ko'rsatkichining o'zini saqlab qolib, ikkinchi ko'rsatkichni, ya'ni ishlab chiqarilgan "aylanma miqdori" ko'rsatkichini olib tashlash lozimligini taklif etamiz. Shunda kichik biznes subyekti surunkali ravishda o'z ishlab chiqarishining miq'yosini tobora kengaytirib borishga, ya'ni, har qanday aylanmadan cheklovlarsiz rivojlanishga intiladi. Bu esa iqtisodiyotimiz yuksalishini tezlashtirishga va aholimiz farovonligini oshirishga muhim asos bo'ladi. Bunday ishonch bilan aytishimizga ishonchli asos bor. Hozir amalda bo'lgan Soliq Konsepsiyasi qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan Konsepsiyada faoliyat yurituvchi subyektlar 2 xil maqomga, ya'ni "biznes" va "kichik biznes" ga bo'linar edi. O'sha paytda kichik biznes subyektlari faqat bitta "yagona soliq to'lovi"ni to'lar edilar hamda uning soliqqa tortish bazasi bo'lib, hozirgidek "aylama, ya'ni oborot miqdori" hisoblanar edi va bu miqdor har qancha ohsa ham soliq turi o'zgarmas edi. Oldingi Soliq Konsepsiyaga muvofiq "Yagona soliq to'lovi" umum belgilangan tartibdagi quyidagi soliqlar va majburiy to'lovlar o'rniga to'lanar edi:

- yuridik shaxslar foyda solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar.

Undan tashqari, soliq hisobotini topshirish muddati uzaytirilgan edi va eng muhimi – mahsulot miqdori har qancha ohsa ham boshqa soliq tizimiga o'tmas edilar, ya'ni bu ishlab chiqarishni cheklamas, balki ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini surunkali ko'paytirib borishni rag'batlantirar edi.

Shunday qilib, aytish mumkinki, yuqoridagi kichik biznes subyekting o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga oluvchi yagona soliq to'lovini qo'llash natijasida, kichik biznes subyektlarining soni jadal sur'atlar bilan o'sdi va ularning byudjet daromadlaridagi ulushi "O" foizdan 2018 yilda 56,2 foizgacha ko'tarildi (hozir 52,6 foizgacha pasaygan). Hozirgi sharoitda kichik biznes subyektlari aylanma miqdori 1 milliardgacha bo'lgan holda aylama solig'i to'laydilar. O'z navbatida aytish lozimki, yagona soliq to'lovchi ham aylanma (oborot) dan soliq to'lar edilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion rivojlanish bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi muammolar mavjud:

- innovatsion iqtisodiyotga o'tishda zarur bo'lgan mablag'larning mamlakat hududida notekis taqsimlanganligi va infratuzilmaning tegishli darajada yaratilmaganligi;
- mahalliy budjet mablag'laridan innovatsion ishlanmalarga deyarli ajratilmasligi;
- innovatsion tizimning o'ta markazlashlashtirilganligi;
- innovatsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazadigan tajribali mutaxassislarning yetishmasligi;
- innovatsion loyihalarni taqdim etishda ayrim korrupsion holatlarning uchrashi;

- mamlakatda fan-texnika taraqqiyoti bilan ishlab chiqarish aloqadorligining zaifligi, yaratilgan ixtirolar, yangiliklar, kashfiyotlarning ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etishning mukammal mexanizmining yo'qligi;

- Respublikada innovatsion rivojlantirishni ta'minlashning strategik rejasi, dasturining to'liq yaratilmaganligi va bu jarayonda istiqbolli rejalashtirish, prognozlash dastaklaridan samarali foydalanilmayotganligi;

- iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligi mezonlarining ishlab chiqilmaganligi va investitsiyalarning moddiy ishlab chiqarish sohasiga nisbatan kamroq kiritilmayotganligi.

Korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirib borish;

- tadbirkorlik subektlarining ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarini kuchaytirish, ular o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro manfaatdorlik tamoyillari amal qilishiga erishish. Bunda ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish uchun barcha huquqiy-me'yoriy asoslarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

- tadbirkorlik subyektlarining o'z faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishdan moddiy manfaatdorligini oshirish, ularning o'z daromadlarini oshirib borishiga turtki beruvchi iqtisodiy erkinligini ta'minlash. Shunday sharoit ta'minlansa, tadbirkorlar innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga, resurslarni tejoychi va unumdorlikni oshiruvchi texnologiyalarni o'z faoliyatiga joriy etishga harakat qiladilar.

- davlat tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, shu maqsadda davlat budjetidan sarflanayotgan mablag'lardan samarali foydalanish ustidan doimiy monitoring yuritish;

- iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha yuqori natijalarga erishgan rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini

o'rganish va ularni mamlakatimiz agrar sohasiga joriy etish chora-tadbirlarni amalga oshirib borish;

- iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish. Innovatsion texnologiyalarni qishloq xo'jaligiga joriy etish sifatli aloqa va internet xizmati mavjud bo'lishini, zamonaviy bilimlarni egallagan yuqori malakali kadrlar bo'lishini, konsalting xizmatlari yo'lga qo'yilishini talab etadi. Shu va boshqa zaruriy infratuzilmani tashkil etish orqaligina ularning faoliyatini rivojlantirish mumkin.


- tadbirkorlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari (oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari) hamda mamlakat hukumati o'rtasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha mustahkam hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish lozim

2.3. Innovatsiyalardan foydalanish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishning ekonometrik tahlili.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari innovatsion maxsulotlar ishlab chiqarishda muhim omil hisoblanadi, chunki bu turdagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar vaziyatga juda moslashuvchan (gipkiy) bo'ladi, bu esa innovatsiyalarni tijoratlashtirishda juda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining Yaim mahsulotidagi ulushini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2016-yil bu ko'rsatkich eng yuqori darajasiga erishgan va hozirda 51.2% ni ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkichlar yildan yilga o'sib borish tendensiyasi o'rniga kamayish tendensiyasini ko'rsatib bormoqda.


2.3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIM dagi ulushi ³⁰(%).



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hozirgi erishgan ulushdan oldingi yillarda yaxshiroq natijaga erishilgan. Bunga sabab sifatida bir qancha omillarni misol keltirish mumkin.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistikasi agentligi. www.stat.uz.



2.1.2-rasm. 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy tarmoqlardagi ulushlari, % da³¹.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida 96,8 % ni tashkil qilgan va bu eng yuqori o'rindagi ulushni egallagan. Sanoatdagi ulushi esa 25,9 % ni tashkil etib, ko'rsatkichlar orasida eng pastki darajada. Kichik tadbirkorlik subyektlarining importdagi ulushi 49,8 % bo'lib, eksportdagi ulushidan 19,7 % ga ko'pdir. YAIM dagi ulushi esa 51,2 % ni tashkil etmoqda, ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, AQSH da kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi ulushi 43,5 % ni, Xitoyda esa 60 % ni tashkil qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan:

Martin Fishbein modeli.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bozor tadqiqotlarida iste'molchi munosabatlarini tushunish xarid qilish xatti-harakatlarini bashorat qilish va unga ta'sir qilish uchun eng muhim hisoblanadi. 1960-yillarda ijtimoiy psixolog Martin Fishbein tomonidan ishlab chiqilgan Fishbein munosabat modeli iste'molchi xatti-harakatlari va bozor tadqiqotlari sohasida o'chmas iz qoldirdi. Fishbein odamlarning mahsulotlarga, brendlarga yoki xizmatlarga nima uchun muayyan munosabatda bo'lishlarini tushunish ularning xatti-harakatlarini, shu jumladan sotib olish qarorlarini bashorat qilishning hal qiluvchi omili ekanligini tan oldi. Fishbein modeli munosabatlarning shaxsning ko'rib chiqilayotgan ob'ektning atributlari yoki xususiyatlariga bo'lgan e'tiqodlari asosida shakllantirilishini aniqlaydi. Bu e'tiqodlar iste'molchilar ega bo'lgan ma'lumotlar va tasavvurlarning haqiqiy qismlaridir. Masalan, smartfon haqida gap ketganda, e'tiqodlar kamera sifati, batareyaning ishlash muddati, operatsion tizim va dizayn estetikasi kabi xususiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Fishbein modelidagi munosabat ballini hisoblash formulasi:

Barcha atributlar uchun munosabat balli = S (Ishonch × Baholash × Muhimlik vazni)

Shuningdek yana kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirishda quyidagi formulalar orqali hisoblash mumkin.

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobatbardoshligini aniqlashda Sanoatdagi raqobat darajasi (C) - bu firmalar sonining umumiy savdo hajmiga nisbatiga tengdir.

$$C=N/S$$

bu yerda N - sanoatdagi firmalar soni, S - umumiy sotish hajmi.

Sanoat rentabelligi (R) - bu foydaning sotishdan tushgan daromadga nisbati:

$$R=\Pi/D$$

bu yerda P - sanoat foydasi, Vyr - sotishdan tushgan daromad

Sanoatning bozor ulushi (D) - bu sanoat mahsulotining umumiy bozordagi sotishga nisbati:

$$D=Sotr/Sryn$$

bu yerda Str - sanoat savdosi hajmi, Smarket - bozordagi umumiy savdo hajmi
Sanoat innovatsion faoliyati (IA) tadqiqot va ishlab chiqish xarajatlarining
umumiy sotishga nisbati:

$$IA=IR/S$$

bu yerda IR - tadqiqot va ishlab chiqish xarajatlari miqdori.

Mehnat unumdorligi (LP) - ishlab chiqarish hajmining ishchilar soniga nisbati:

$$LP=Q/L$$

bu yerda Q - ishlab chiqarish hajmi, L - xodimlar soni.

Ushbu ko'rsatkichlar sanoatning raqobatbardoshligini baholashga va uni
rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini
oshirishni innovatsiyalardan foydalangan holda amalga oshirish tahlilini qilish
uchun ekonometrik tahlilni amalga oshirish lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini
oshirishda asosiy muommalardan biri bu innovatsion mahsulot hajmini
oshirishdagi muommolardir. Bu jarayonga ta'sir korsatuvchi omillarni aniqlash
va ular qanchalik darajada ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash kerak. Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarish hajmini statistik tahlil qilish uchun asosan
quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Korrelyatsion tahlil
2. Regression tahlil

Korrelyatsiya so'zi lotincha correlation so'zidan olingan bo'lib, o'zaro
munosabat, muvofiqlik, bog'liqlik degan ma'noga ega. Korrelyatsion tahlil deb
hodisalar orasidagi bog'lanish yo'nalishi va zichlik darajasini baholashga
aytiladi³².

Korrelyatsiya koeffitsienti (r) -1 dan +1 oralig'ida bo'ladi. Agar $r = 0$
bo'lsa omillar o'rtasida bog'lanish mavjud emas, $0 < r < 1$ bo'lsa, to'g'ri

³² D. Rasulev, SH. Nurullayeva, N. Ro'zmetova, M. Muminova, Ekonometrika asoslari, Toshkent, Iqtisodiyot-2019-43b.

bog‘lanish mavjud $-1 < r < 0$ teskari bog‘lanish mavjud $r = 1$ bo‘lsa funksional bog‘lanish mavjud.

Korrelyatsion bog‘lanish zichlik darajasi odatda quyidagicha talqin etiladi.

2.3.2-jadval

Korrelyatsion bog‘lanish zichlik darajasini baholash shkalasi³³

Korrelyatsion koeffitsienti intervali	Korrelyatsion bog‘lanish zichligi darajasi
0,2 gacha	Kuchsiz bog‘lanish
0,2 -0,4	O‘rtacha zichlikdan kuchsizroq bog‘lanish
0,4-0,6	O‘rtacha bog‘lanish
0,6-0,8	O‘rtachadan zichroq bog‘lanish
0,8-0,99	Zich bog‘lanish

Regression tahlil, oralarida sabab-natija munosobati mavjud, erkli va erksiz o‘zgaruvchilar sifatida qabul qilingan ikki yoki undan ko‘p o‘zgaruvchidan erkli o‘zgaruvchi (lar) ma’lum bo‘lsa, erksiz o‘zgaruvchi olishi mumkin bo‘lgan qiymat (lar) ni tahmin etish uchun qilingan tahlildir. Ya’ni regression tahlil orqali bitta yoki undan ko‘p erkli o‘zgaruvchining, bir erksiz o‘zgaruvchiga ta’siri aniqlanadi. Shuningdek regression analizi orqali o‘zgaruvchilar orasidagi munosobatga ko‘ra, matematik model ya’ni, tenglama yaratishga harakat qilinadi.

Korrelyatsion tahlil kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish hajmiga turli omillarning ta’siri darajasini bilib olishning eng maqbul yechimidir. Bu ta’sir darajasi -1 va +1 oralig‘ida bo‘lib, 0,8 dan 0,99 gacha bo‘lsa kuchli ta’sir darajasi hisoblanadi. Odatda kuchli ta’sir etuvchi omillar esa keyingi tahlillarga kiritiladi. Sust bog‘lanishdagi ko‘rsatkichlar esa tahlillardan olib tashlanadi.

Regression tahlil esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish hajmiga kuchli ta’sir etuvchi omillarning 1 birlik o‘zgarishi uni qanchaga oshishiga olib kelishini aniqlash imkonini beradi.

³³ <http://instituciones.com/download/books/1798-ekonometrika-orexov-uchebnoe-posobie.html>

Korrelyatsion tahlilda quyidagi formula orqali bog‘lanish zichligi aniqlanadi³⁴:

$$r = \frac{\sum_i^n ((x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}))}{\sqrt{\sum_i^n (x_i - \bar{x})^2 \sum_i^n (y_i - \bar{y})^2}} \quad (2.3.1)$$

Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmiga ta’sir etuvchi mazkur omillar qiymatlari 1-ilovada berilgan.

1-ilovadagidagi omillar mantiqiy fikrlash usuli orqali tanlab olingan. Ushbu omillarning investitsiyalarga ta’sir darajasini o‘rganib chiqamiz. Buning uchun Excel dasturiy ta’minotidan foydalanamiz (2.3.3 -jadval):

2.3.3-jadval

Korrelyatsiya matritsasi³⁵

	Y	x1	x2	x3	x4	x5	x6	x7	x8	x9	x10
Y	1										
x1	0,965	1									
x2	-0,052	0,021	1								
x3	0,931	0,982	-0,048	1							
x4	0,922	0,978	-0,054	0,9996	1						
x5	0,918	0,974	-0,048	0,999	0,9997	1					
x6	0,927	0,982	-0,090	0,997	0,996	0,994	1				
x7	0,898	0,918	0,338	0,866	0,858	0,858	0,847	1			
x8	0,950	0,995	-0,020	0,993	0,990	0,987	0,993	0,888	1		
x9	0,961	1,000	0,005	0,986	0,982	0,978	0,987	0,908	0,997	1	
x10	0,756	0,842	-0,174	0,913	0,917	0,919	0,910	0,645	0,890	0,854	1

2.3.1-jadvalga ko‘ra deyarli barcha omillar (x_2 dan tashqari) natijaviy belgi y bilan zich bog‘langan. Boshqacha qilib aytganda, korrelyatsiya koeffitsenti $r_{yx_i} > 0,7$ shartni qanoatlantiradi. Shuningdek, ko‘p omilli ekonometrik modellarga qo‘yilgan talabga ko‘ra omillar o‘zaro multikolleniar (ya’ni o‘zaro kuchli bog‘langan) bo‘lmasligi kerak. Bizning misolimizda x_{10} va x_7 omillari

³⁴ X. Shodiyev, Yo. Abdullayev, Z. Toshmatov, M. Xamroev, X. Xo‘jaqulov, T. Boltayev, R. Urunov, Statistika, Toshkent-2004-240b.

³⁵ Muallif ishlanmasi.

o‘zaro kolleniar emas. Shu sababli regressiya modelimiz quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$y = a + b_7x_7 \quad (2.3.1)$$

(3.1.2) modelning parametrlarini aniqlash uchun Microsoft Excel ning Анализ данных paketidan foydalanamiz.

$$y = 2.96172042x_7$$

Ikkinchi modelda esa x_{10} omiliga (Tovar moddiy zaxiralarining o‘zgarishi) ko‘ra modelni tuzib olamiz.

$$y = a + b_{10}x_{10} \quad (2.3.2)$$

$$y = 0.24663x_{10}$$

Xulosa: Uy xo‘jaliklarining xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlarning ishlab chiqarish hajmini 1 mlrd so‘mga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining innovatsion maxsulot ishlab chiqarish hajmini 2.96172042 ga oshishiga olib keladi. Ikkinchi modelga ko‘ra esa tovar moddiy zaxiralarining hajmini 1 mlrd so‘mga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining innovatsion maxsulot ishlab chiqarish hajmini 0.24663 ga oshishiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarida ishlab chiqarilgan innovatsion maxsulotlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni ko‘plab ko‘rsatish mumkin, yuqoridagi ekonometrik tahlil orqali, eng muqobil omil tanlab olinib unga ko‘ra model tuzilgan.

II BOB BO‘YICHA XULOSA.

1. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanish holati tahlili ko‘rib chiqilgan.

- O‘zbekiston Respublikasi YAIM dagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarining ulushi ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi.

- O‘zbekistondagi 2014-2023-yillardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni bo‘yicha tavsifiy statistika o‘tkazildi.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sohalardagi umumiy siljishlarini baholash uchun B.M.Ryabsevning quyidagi tuzilmaviy siljishlar indeksidan foydalanilgan holda tarkibiy o‘zgarishlar yo‘nalishi aniqlandi.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tarmoqlardagi ulushining umumiy siljishlar dinamikasi yaratildi.

2. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish va shu orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha mavjud muammolar o‘rganib chiqildi.

- Mamlakatimizda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to‘sqinlik qiluvchi muammolar ko‘rib chiqildi.

- Innovatsiyalardan foydalanish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishning ekonometrik tahlili qilindi va bunga ko‘ra, innovatsion ishlab chiqarilgan maxsulotlarga ta’sir ko‘rsatuvchi 10 ta omil tanlanib olinib, ular orasidagi bog‘liqlik darjasi ko‘rsatib berildi.

- Uy xo‘jaliklarining xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlarning ishlab chiqarish hajmini 1 mlrd so‘mga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarining innovatsion maxsulot ishlab chiqarish hajmini 2.96172042 ga oshishiga olib kelishi aniqlandi.

III-BOB. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar.


Innovatsion mahsulotlarni yaratish va ularni amalda tijoratlashtirish dunyo mamlakatlarining kun tartibidagi asosiy va muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ko'pgina mamlakatlar bu masalada ma'lum strategiyalar ishlab chiqmoqdalar. Global raqobatga bardoshli bo'lib tura olish uchun, iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun, mamlakatda yashash sifatini oshirish kabi makro maqsadlarni haqiqatga aylantirish uchun innovatsiya kritik bir tushincha bo'lib ko'rinmoqdadir. Mamlakat ichidagi innovatsiya yaratadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni qanchalik ko'p bo'lsa, bu mamlakat aholisining yashash sifati darajasi shunchalik yaxshiligini ko'rsatasadi.

Xitoy dunyodagi eng yirik korxonalar uchun jozibador bozor hisoblanadi. So'nggi bir necha yil ichida Xitoy milliy va iqtisodiy masalalar bo'yicha o'z o'rniga ega bo'lib, ko'plab tadbirkorlar va tashkil etilgan kompaniyalarni mamlakat ichida faoliyat yuritadi. Xitoyda bir milliarddan ortiq aholi istiqomat qiladi. U tez rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega bo'lib, u dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Shuningdek, u dunyodagi eng yirik tovarlar eksportchisi va importchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, kompaniya hamyonbop va ishonchli texnologiya hamda yuqori samarali ishchi kuchini taklif etadi. Bu omillarning barchasi Xitoyni biznes yuritish uchun qudratli davlatga aylantiradi. Shuning uchun Fortune 500 ro'yxatidagi aksariyat kompaniyalar mamlakatda mavjud. Xitoyda qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, neft va gaz, avtomobilsozlik, farmatsevtika va turizm kabi ko'plab rivojlangan tarmoqlar mavjud. Xitoy hozirda ma'lum kichik biznes imkoniyatlarini ilgari surmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra OECD, Xitoydagi kichik va o'rta korxonalar soni 2020 yilda 140 milliondan oshdi. Bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMning 60% dan ortig'iga hissa qo'shadi, 50% soliq

daromadining, 70% texnologik innovatsiyalar, shuningdek, ish o'rinlarining 79% ga hissa qo'shadi.

3.1.1 – jadval.

Xitoyda kichik biznes sub'yektlari va korxonalar soni ³⁶.



Jaxon iqtisodiyotida Xitoy xalq Respublikasining asosiy o'yinchilardan biri bo'lishi uchun uning tez iqtisodiy o'sishi sabab bo'di. Xitoy hukumati milliy iqtisodining rivojlanishidagi innovatsion strategiyani izchillik bilan amalga oshirdi. " Milliy innovatsiyalar tizimi (National innovation system) " tushinchasi Xitoyda 1980-yillarning oxirida paydo bo'gan va 20-asrning oxirlarida yanada rivojlandi. Milliy innovatsiya tizimi iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil (drayver) hisoblanadi.

2004 yilda Xitoyda NIS muhiti asosan texnoparklar va yuqori texnologiyali zonalar (TP va HTZ)ga asoslangan, 2015 yilga kelib ularning umumiy ishlab chiqarish yuqori texnologiyali mahsulotlar Xitoy yalpi ichki mahsulotining 13% ga yetdi. Buning sababi izchil davlat strategiyasini rivojlantirishdadir korporativ innovatsion faoliyat. Biroq, 2009 yildan boshlab ushbu strategiya maqsadli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda innovatsion faollikni oshirish orqali innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirishda KO'B sub'ektlari. "Ommaviy

³⁶ <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/a3891ad8-en/index.html?itemId=/content/component/a3891ad8-en>

tadbirkorlik, universal investitsiyalar” Davlat dasturi (2009) yiliga 6,5 milliard dollarlik moliyalashtirish bilan ushbu jarayonni boshladi. Ga qo'shimcha sifatida ushbu dastur 2010 yilda hukumat tomonidan SBIR (Kichik biznes Innovatsion rivojlanish va tadqiqotlar) dasturi. Bunga qo'shimcha tarzda bu dastur kichik biznesda innovatsion rivojlanish va izlanishlar dasturini ham boshladi, bu dasturning maqsadi tadbirkorlik faoliyatini yurutuvchilar duch keladigan 10 ta asosiy ilmiy va texnik muammolarni hal qilishga qaratilgan edi. 2016 yilga kelib, SBIR dasturi 28410 ta texnologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun 42 milliard dollardan ortiq mablag' ajratdi. Umuman olganda, 2016 yilga kelib Xitoy hukumati rag'batlantirish uchun 56 milliard dollardan ortiq mablag' sarfladi ommaviy innovatsion tadbirkorlik uchun . Bu xususiy jalb qilish uchun xizmat qiladi korxonalar 10 ta eng yirik duch keladigan aniq ilmiy va texnik muammolarni hal qilish uchun federal vazirliklar va milliy idoralar. Uning mablag'lari 2,5% ni tashkil qiladi kichik va o'rta korxonalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash byudjeti. 2016 yilga kelib, SBIR dasturi modernizatsiya va texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan 28410 texnologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun 42 milliard dollardan ortiq mablag' ajratdi. KO'Kda mustaqil innovatsiyalar (Innovatsion siyosat sharhlari, 2017). Umuman olganda, 2016 yilga kelib Xitoy hukumati rag'batlantirish uchun 56 milliard dollardan ortiq mablag' sarfladi ommaviy innovatsion tadbirkorlik (Innovatsion siyosat sharhlari, 2017). Bunday muhim qo'llab-quvvatlash kichik va keng ko'lamli jalb nafaqat olib keldi o'rta biznes AR-GE faoliyatida, balki yangilarini ishlab chiqishda Xitoyning NIS landshaftida ma'lum o'zgarishlarga olib kelgan innovatsion tuzilmalar. Tomonidan 2016 biznes inkubatorlar va texnologik ijod klublari (hackerspaces,makerspaces), ular bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni sezilarli darajada mustahkamladi miqdor jihatidan ham, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham pozitsiyalar. Moliyaviy sohada sektori, biznes farishtalari va kichik venchur investitsiya fondlari, moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, kichik va o'rta korxonalar o'sib borayotgan miqyosda ishlaydi va muvaffaqiyatga erishadi. 2013 yildan boshlab yangi


ro'yxatdan o'tgan kichik va o'rta korxonalarining o'sish sur'atlari innovatsiyalar sektori yiliga 23,4% ni tashkil etdi. 2016 yilga kelib Xitoy 19,1 mln Ar-ge sohasidagi kompaniyalar. Mutaxassislarning umumiy soni 164 million kishidan oshdi odamlar. Ushbu kompaniyalarning ustav kapitali taxminan 14,5 trillion dollarga baholangan,

Bu mamlakatdagi kichik va o'rta korxonalar umumiy ustav kapitalining 52,9 foiziga to'g'ri keladi. Innovatsion kichik va o'rta biznes bunday keng ko'lamda rivojlana olmaydi Tegishli zamonaviy tadqiqot va ishlab chiqarish infratuzilmasisiz shunday tez. Bugungi kunda biznes-inkubatorlar va xakerlar makonlari an'anaviy tarzda hal qiluvchi yordam beradi xususiy korxonalar uchun tadqiqotlarni tashkil etishda. Ikkinchisi, bilan laboratoriyalar sifatida belgilangan ochiq (pullik yoki bepul) kirish, innovatsion KO'Kni infratuzilma bilan ta'minlash, mutaxassislar va qimmatbaho tadqiqot, analitik va o'lchash uskunalari. 90-yillarning oxirida Evropada paydo bo'lgan xakerlar bo'shliqlari ishlab chiqilgan va texnik vositalarga ega bo'lgan Massachusetts texnologiya institutida (AQSh) dizayn.

Xitoy xalq Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari iqtisodiy dinamizmni (shijoat, g'ayratni), innovatsiyalarni kengaytirishni va tadbirkorlikni asrab qolish va oshirishda muhim rol o'ynovchi kalit hisoblanadi. Xitoy xalq Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari 50% ga yaqin soliq kirimlarini, YAIM ning 60% ga, texnologikal innovatsiyalarning 70 % ga, shahar joylardagi ish o'rinlarining 80 % ga hissa qo'shadi. 2022 yilda Xitoyda 52 millionga yaqin kichik va o'rta korxonalar mavjud bo'lib, yangi ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni kuniga o'rtacha 23 800 taga yetdi. Mikro va kichik korxonalar (KKT) uchun to'lanmagan biznes kreditlari 2022-yilda 59,7 trillion yuangacha o'sdi, bu 2021-yilga nisbatan 19,4 foizga ko'p.

3.1.1-jadval

Mamlakatlarning yalpi ichki harajatlarida tadqiqot va izlanmalar (R&D) ning ulushi (% ,2022)³⁷.



2022 yilda tijorat banklarining jami aktivlarining sekinlashuvi kuzatildi, chunki butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy tiklanish Xitoy iqtisodiyoti uchun pasayish bosimini oshirdi. 2022-yilda kichik va o‘rta biznes sub’ektlarining 58,38 foizi bank kreditlari uchun murojaat qilgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 1,71 foiz punktga ko‘pdir. So‘nggi yillarda Xitoy soliq va to‘lovlarni qisqartirish siyosatini takomillashtirdi va amalga oshirdi, 2022 yilda soliq va to‘lovlarni kamaytirishning umumiy miqdori 4,2 trillion yuandan oshdi. Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik sub’ektlari asosiy foyda oluvchilar bo‘lib, yangi soliqlar va to‘lovlar 1,7 trillion yuandan oshdi, bu umumiy miqdorning qariyb 40 foizini tashkil etdi. 2022 yilda yakka tartibdagi tadbirkorlarning 80% ga yaqini soliq to‘lashi shart emas.

Garovga qo‘yiladigan talablar kichik va o‘rta korxonalar uchun bank kreditlaridan foydalanishda yana bir cheklovdur. 2019-2020 yillar davomida kichik va o‘rta biznes sub’yektlariga garov ta‘minoti bilan ta‘minlangan bank

³⁷ https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=R%26D_expenditure

kreditlari nisbati barqaror ravishda 53,2 foizdan 50,9 foizga tushib, 2,3 foiz punktga kamaydi. Talab bo'yicha so'rovlar shuni ko'rsatadiki, bu nisbat kichik biznes sub'yektlari uchun yirik kompaniyalarga nisbatan hali ham yuqori.

2022 yilda tizimli pul-kredit siyosati COVID-19 ta'siriga javoban kreditlarni iqtisodiyotning strategik tarmoqlari va zaif sohalariga yo'naltirishda davom etdi. Umuman olganda, kichik va o'rta korxonalarini kreditlash shartlari yaxshilandi. Bundan tashqari, kichik va o'rta biznes kreditlari bo'yicha arizalarni rad etish darajasi 3,6% atrofida barqaror bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining bank kreditlaridan foydalanish darajasi esa 87,69% yuqori darajada saqlanib qoldi.

2021 yilda Xitoy kichik va o'rta korxonalarining o'sishi va innovatsiyasiga yordam berishda davom etdi, Yangi Uchinchi Kengash islohotini davom ettirdi va Pekin fond birjasini tashkil etdi. 2022 yilda Xitoy Shanxay va Shenchjen an'anaviy asosiy platalaridan, Fan va texnologiya innovatsion kengashidan (STAR bozori), venchur kengashidan, Pekin fond birjasidan, Milliy qimmatli qog'ozlar birjasidan va kotirovkalardan iborat ko'p darajali kapital bozori tizimini qurdi. (NEEQ).

2022 yilda kichik va o'rta korxonalar STAR Marketdan 252,0 milliard yuan, Shenzhen venchur kengashidan 179,6 milliard yuan va Pekin fond birjasidan 16,38 milliard yuan oldi, bu o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 24,22 foizga, 21,78 foizga va 117,81 foizga ko'pdir. Umuman olganda, 2022-yilda STAR bozorida 148 ta kichik kompaniya, Venture kengashida 123 ta va Pekin fond birjasida 83 ta kichik kompaniya ro'yxatga olindi, bu o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 25,63%, 24,07% va 102,44% ga kamaydi.

2022 yilda NEEQda listing kompaniyalarining umumiy soni 6580 tani tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 5,08% ga kamaydi va tranzaksiyalarning umumiy miqdori 2021 yilga nisbatan 62,85% ga kamaydi va 79,8 mlrd yuanni tashkil etdi. Yil davomida listing kompaniyalari tomonidan to'plangan aksiyalarning umumiy miqdori 2021-yildagi 25,9 milliard yuanga nisbatan 23,2 milliard yuanni tashkil etdi.

Milliy innovatsion tizimlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan venchur kapital kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning muhim manbasiga aylandi. 2021-yilda, ichki va xalqaro muhitning ta'siriga qaramay, venchur kapital sanoati kuchli tiklandi, 2021 yilda venchur kapital investitsiyalari zaxirasi 2020-yilga nisbatan 16,12 foizga ko'p bo'lib, 728,3 milliard yuanga yetdi. bu yilda.

Sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini tartibga solish natijasida so'nggi yillarda Xitoyning moliyaviy lizing shartnomalari balansining o'sishi barqaror ravishda sekinlashdi va 2020 yildan boshlab ichki moliyaviy lizing shartnomalari balansi pasayib bormoqda. 2022 yilda Xitoyning moliyaviy lizing shartnomalari balansiga ega edi. 58,5 trln yuanni tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 3,6 trillion yuanga va 5,8 foizga kamaydi. Xitoyda moliyaviy lizing sohasidagi kompaniyalar soni 9 840 tani tashkil etdi, bu 2021 yildagi 11 917 taga nisbatan 2 077 taga kamaydi.

2022 yilda Xitoy hukumati moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarni engillashtirish va kichik va o'rta korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirishni davom ettirdi, jumladan: soliq va to'lovlarni kamaytirish, subsidiyalar, moliyalashtirish kafolatlari, moliyalashtirish kanallarini kengaytirish, moliyaviy xizmatlarni yaxshilash va sanoat va moliya o'rtasidagi aloqani kuchaytirish. Xitoy texnologiyaga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratib, kichik biznes sub'ektlariga to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish bo'yicha maxsus loyihalarni amalga oshirdi.

O'tgan yillarda Xitoy kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirdi. Xitoy 2020 yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan milliy ota-ona jamg'armasi bo'lgan Milliy kichik va o'rta biznesni rivojlantirish jamg'armasini ishga tushirdi. 2022 yilda ushbu jamg'arma 90 milliard yuanga yaqin mablag' to'pladi va 1100 dan ortiq loyihalarga sarmoya kiritdi. 2022-yilda Milliy moliyalashtirishni kafolatlash jamg'armasi 59,99 foizga sezilarli o'sishni aks ettiruvchi 1,2 trillion yuan miqdoridagi qayta kafolat xizmatlarini taqdim etdi. Natijada, jami 1,39 million kichik va o'rta biznes sub'ektlari ushbu xizmatlardan

foydalandilar, bu esa 91,60 foizlik o'sish sur'atini ko'rsatdi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun maxsus jamg'armalar jami 5,65 milliard yuandan ortiqni tashkil qiladi. Moliyaviy kafolat to'lovlarini kamaytirish uchun mukofotlar va subsidiyalar taxminan 3 milliard yuanni tashkil qiladi³⁸.

Dunyo mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish darajasini ko'rsatuvchi bir qancha ko'rsatkichlar bor. Ulardan biri bu Global innovatsiya indeksidir (Global Innovatin Index GII). Xitoy GII 2023 da ko'rsatilgan 132 ta iqtisod orasida 12-o'rinni egalladi. Xitoy yuqori o'rta daromadli 33 ta iqtisodiyot guruhi orasida 1-o'rinni egalladi. Xitoy Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Okeaniyadagi 16 ta iqtisodiyot orasida 3-o'rinni egallaydi.

3.1.3-jadval

Xitoy xalq Respublikasining global innovatsion indeksi (GII) da egallagan o'rni. (2020-2023)³⁹.

yil	Global innovatsiya indeksi(GII)	kirish indeksi (innovation inputs)	Chiqish indeksi (innovation outputs)
2020	14	26	6
2021	12	25	7
2022	12	25	8
2023	11	21	8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Xitoy xalq Respublikasi dunyo mamlakatlari ichida Global innovatsiya indeksi bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Bu esa o'z navbatida

³⁸ <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/7c08f656-en/index.html?itemId=/content/component/7c08f656-en#:~:text=SMEs%20contribute%20approximately%2050%25%20of,of%2023%20800%20per%20day.>

³⁹ WIPO - World Intellectual Property Organization, <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/china?sort=year&dir=ASC>

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarida innovatsion maxsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ham yetakchi o'rinda ekanligini ko'rsatadi.

3.2. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligini yuksaltirish yo'llari

Dunyo bo'yicha barcha rivojlangan, rivojlanayotagan mamlakatlar iqtisodida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi tarmoqlar bo'yicha ko'payishi – bu iqtisodiy rivojlanishga erishayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa sanoat sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'sib borishi bu yaxshi natijadir. Kuzatuvlar yordamida olingan iqtisodiy vaqtli qatorlar kamdan - kam xolatlarni hisobga olmaganda odatda statsionar bo'lmaydi. Bunday vaqtli qatorlarda vaqtga bog'liq bo'lgan tasodifiy bo'lmagan tarkibiy qismlar mavjud bo'ladi. Agar vaqtli qatorning tasodifiy qoldiqlari statsionar qatorni tashkil etsa, u holda vaqtli qator statsionar bo'lmagan qatorni tashkil etadi. Bunday qatorlarni tavsiflashda integratsiyalashgan avtoregressiya va sirg'aluvchi o'rtacha (Autoregressive Integrated Moving Average – ARIMA) modeli qo'llaniladi⁴⁰.

Vaqtli qatorlarni bir nechta prognozlash turlari mavjud bo'lib, ular orasida eng keng tarqalganlari silliqlash va ARIMA modellari hisoblanadi. Silliqlash modellari 1950-yillarda ommalashgan bo'lsa, ARIMA modellari Boks va Jenkinslar tomonidan 1970 yillarda yaratilgan va ommalashgan. ARIMA ingliz tilidan autoregressive integrated moving average ya'ni integrallashgan sirg'anchiqli avtoregressivni ifodalaydi. ARIMA modelida p, d, q tushinchalari mavjud. Bunda eng avvalo d ni aniqlash kerak. Agar vaqtli I (0) statsionar bo'lsa d ning o'rniga bir qo'yamiz. P qisman avtokorrelyatsion q esa avtokorrelyatsion grafik asosida aniqlanadi.

Boks Jenk metodologiyasi uchta qismni o'z ichiga oladi.


1. Aniqlash
2. Baholash

⁴⁰ Тўраев Б. Э., Хатамов О. Қ. Арима модели ёрдамида қурилиш ишлари ҳажмини прогноз қилиш (Сурхондарё вилоятида мисолида).

3. Prognozlash

Birinchi bosqichda ARIMA modelidagi p , d , q qiymatlari aniqlanadi. Bunda dastlab d ning qiymati ko'rsatkichning statsionarligi orqali topilib, so'ngra boshqalari ham topiladi.

Tadqiqotimizni ko'rsatkichlarni statsionarlikka tekshirishdan boshlaymiz. Ilmiy adabiyotlarda nostatsionar davriy qatorlar " integratsiyalashgan jarayon " deb ham yuritiladi. Qatorning integratsiya darajasi uning statsionar holga keltirish uchun necha marta differatsiyalash lozimligi bilan aniqlanadi.



3.2.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi chizmasi⁴¹

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, vaqtli qator statsionar emas. Demak, vaqtli qatorning birinchi farqlarini statsionarligini tekshiramiz. (1-jadval)

3.2.1-jadval

Kengaytirilgan Dikki –Fyuller testi natijalari⁴².

Расширенный тест Дики-Фуллера для d_y
тест. начиная с 4 лагов, критерий AIC
объем выборки 18
нулевая гипотеза единичного корня: $a = 1$

тест без константы
включая 3 лага(-ов) для $(1-L)d_y$
модель: $(1-L)y = (a-1)*y(-1) + \dots + e$

⁴¹ Muallif ishlanmasi.

⁴² Muallif ishlanmasi.



оценка для $(a - 1)$: 0,547774
 тестовая статистика: $\tau_{nc}(1) = 2,53523$
 асимпт. р-значение 0,9976
 коэф. автокорреляции 1-го порядка для e : 0,005
 лаг для разностей: $F(3, 14) = 9,820 [0,0010]$

тест с константой
 включая 3 лага(-ов) для $(1-L)d_y$
 модель: $(1-L)y = b_0 + (a-1)*y(-1) + \dots + e$
 оценка для $(a - 1)$: 0,245475
 тестовая статистика: $\tau_c(1) = 0,86985$
 асимпт. р-значение 0,9952
 коэф. автокорреляции 1-го порядка для e : -0,036
 лаг для разностей: $F(3, 13) = 7,717 [0,0033]$

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'zgarmasli va o'zgarmissiz test natijalariga ko'ra p-qiymat istalgan ahamiyatlilik darajasidan, ya'ni 0.1, 0.05, 0.01 katta. Demak, birinchi farqlar ham statsionar emas. Odatda bunday holatda ikkinchi farqlarga o'tiladi.

ARIMA modellari umumiy ko'rinish $ARIMA(p, d, q)$ ko'rinishida bo'adi. Bu yerda p - avtoregressiya tartibi, d - integratsiyalanganlik darajasi tartibi (bizning holatimizda $d=2$ bo'ladi) va q - esa sirg'aluvchi o'rtacha tartibi.

Endi p va q qiymatini aniqlashimiz uchun korrelogramma tuzamiz.



3.2.2-rasm. Vaqtli qator korrelogrammasi⁴³

3.2.2-rasmdan ACF bir maromda kamayib borish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rish mumkin. PACF da birinchi lagdan keyin uzilish kuzatilgan. Bunday jarayon avtoregressiya modellariga hos bo'ladi. Bundan sirg'aluvchi o'rtacha $q=0$ ekanligi kelib chiqadi.

Shunday qilib ARIMA(1, 2, 0) modelni tajriba qilib ko'ramiz.

3.2.2-jadval



Regression tahlil natijalari⁴⁴

Модель 6: ARIMA, использованы наблюдения 2002-2022 (T = 21)				
Зависимая переменная: (1-L) ² y				
Стандартные ошибки рассчитаны на основе Гессииана				
	Коэффициент	Ст. ошибка	z	p-значение
Const	985,343	944,132	1,044	0,2966
phi_1	-0,642561	0,155061	-4,144	<0,0001 ***
Среднее завис. перемен	898,7476	Ст. откл. завис. Перемен	9602,247	
Среднее инноваций	-14,81322	Ст. откл. Инноваций	6972,311	
R-квадрат	0,974973	Исправ. R-квадрат	0,974973	
Лог. правдоподобие	-215,9077	Крит. Акаике	437,8154	
Крит. Шварца	440,9490	Крит. Хеннана-Куинна	438,4955	
	Действительная часть	Мнимая часть	Модуль	Частота
AR				
Корень 1	-1,5563	0,0000	1,5563	0,5000

Modelni ARIMA(1, 2, 0) modelni tajriba qilib ko'rganimizda o'zgarmas statistik ahamiyatga ega bo'lmadi (3.2.2-jadval). Shundan so'ng o'zgormassiz model tajriba qilib ko'rildi. O'zgormassiz model bo'yicha qoldiqlarda avtokorrelyatsiya kuzatildi (3-rasm).

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Gretl dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Gretl dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.



3.2.3-rasm. Qoldiqlar korrelogrammasi⁴⁵

Shundan so'ng, o'zgarasli ARIMA(2, 2, 0) modeli tajriba qilindi. Uning approksimatsiya xatoligi MAPE=59,593% ga teng bo'lganligi sababli tajribalarda o'zgarassiz model sinab ko'rildi (3-jadval).

3.2.3-jadval

Regression tahlil natijalari⁴⁶

Модель 9: ARIMA, использованы наблюдения 2002-2022 (T = 21)					
Зависимая переменная: (1-L)^2 y					
Стандартные ошибки рассчитаны на основе Гессмана					
	Коэффициент	Ст. ошибка	z	p-значение	
phi_1	-0,906876	0,188987	-4,799	<0,0001	***
phi_2	-0,418901	0,183543	-2,282	0,0225	**
Среднее завис. перемен	898,7476	Ст. откл. завис. Перемен	9602,247		
Среднее инноваций	2224,314	Ст. откл. Инноваций	6369,171		
R-квадрат	0,982611	Исправ. R-квадрат	0,981696		
Лог. правдоподобие	-214,1969	Крит. Акаике	434,3938		
Крит. Шварца	437,5274	Крит. Хеннана-Куинна	435,0739		


⁴⁵ Muallif ishlanmasi.

⁴⁶ Muallif ishlanmasi.

AR	Действительная часть	Мнимая часть	Модуль	Частота
Корень 1	-1,0824	-1,1025	1,5451	-0,3735
Корень 2	-1,0824	1,1025	1,5451	0,3735

3.2.3-jadvalda ko'rinib turibdiki model koeffitsiyentlari statistik ahamiyatga ega. Shuningdek tajribalarda model approksimatsiya xatoligi tekshirildi va MAPE= 14.166% ekanligi aniqlandi. Modelning qoldiqlarida ahamiyatli laglar kuzatilmadi.

Shunday qilib, ARIMA(2, 2, 0) modeli iqtisodiy jarayonga mosligi aniqlandi. (4-rasm). Undan foydalanib, 2028 yilga qadar vaqtli qatorning prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (3.2.4-jadval).



3.2.4-rasm. Vaqtli qator tekislangan va haqiqiy darajalari hamda prognoz qiymatlari⁴⁷.

Yuqoridagi rasm (3.2.4-rasm) dan xulosa qilib aytish mumkinki 2024-2028-yillar oraliqlarida o'sish tendensiyalarini ko'rish mumkin. Prognoz natijalariga ko'ra, 2022- yildagi kichik biznesning sanoatdagi ulushi 134613,4

⁴⁷ Muallif ishlanmasi.


mlrd so‘m ni tashkil etgan bo‘lsa, 2028- yilda bu ko‘rsatkich 265731,7 mlrd so‘m ga yetishi kutilmoqda.

3.2.4-jadval

Kichik biznesning sanoatdagi ulushi prognoz qiymatlari⁴⁸

Yillar	Kichik biznesning sanoatdagi ulushi (mlrd so'm)	Kichik biznesning sanoatdagi ulushi (mlrd so'm)	Ishonch intervalining quyi chegarasi	Ishonch intervalining yuqori chegarasi
2000	244			
2001	355,1			
2002	690,6	533,9		
2003	659,6	862,2		
2004	892,1	867		
2005	1 104,8	1 039,2		
2006	1 589,3	1 225,1		
2007	2 432,4	1 835,6		
2008	3 489,5	2 836,4		
2009	5 072,3	4 202,3		
2010	10 132,9	6 088,7		
2011	13 586,8	11 819,3		
2012	17 114,6	17 040,9		
2013	23 312	21 248,4		
2014	30 907	27 057,4		
2015	39 643,5	36 116,3		
2016	50 654,5	46 759,3		
2017	61 367,8	59 124,6		
2018	87 962	71 398,3		
2019	83 344,2	100 278,9		
2020	103 020,8	100 379,3		
2021	124 907,9	113 740,1		
2022	143 892,7	134 613,4		
2023		164 583,5	152 100,2	177 066,9
2024		184 943	166 448,6	203 437,4
2025		204 888,3	177 761	232 015,7
2026		225 348	187 620,6	263 075,5
2027		245 514,7	197 110,3	293 919,2
2028		265 731,7	205 158,9	326 304,4

⁴⁸ Muallif ishlanmasi.



3.2.5-rasm. *Kichik biznes sanoatdagi ulushi prognozi*⁴⁹.

Mazkur rasm (3.2.5-rasm) dan kichik biznesning sanoatdagi ulushining 2028- yildagi ishonch intervalining quyi chegarasi 205 158,9 mlrd so‘mni tashkil qilishini, ishonch intervalining yuqori chegarasida esa 326 304,4 mlrd so‘mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Tadqiqotda 2000-yil 2022-yil oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan kichik biznesning sanoatdagi hajmi ma‘lumotlari tahlil qilindi.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma‘lumotlariga ko‘ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

III-BOB BO‘YICHA XULOSA.

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalari (Xitoy misolida) ko‘rib chiqildi.

- Mamlakatlarning yalpi ichki harajatlarida tadqiqot va izlanmalar (R&D) ning ulushi (% ,2022) jadvali tuzildi.

- Xitoy xalq Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari

iqtisodiy sohalardagi o‘rni foizlarda ko‘rsatib berildi.

- Xitoy xalq Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari uchun bank kreditlarining imtiyozlari ko‘rsatib o‘tildi.

- Xitoy xalq Respublikasida milliy innovatsion tizimi (NIS) haqida ma'lumotlar berildi

2. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligini yuksaltirish yo‘llari takliflari berildi.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari ishlab chiqargan innovatsion maxsulotlar hajmini 6 yillik prognozi ishlab chiqildi va jadval ko‘rinishida berildi.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining O‘zbekistonda qo‘llash mumkin bo‘lgan ilg‘or xorij tajribalari misol keltirildi.

XULOSALAR

Magistrlik ishi doirasida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeklarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish uchun sohadagi tarkibiy o'zgarishlarni Ryabsev indeksi orqali tahlil qilindi va muommolar o'rganib chiqildi.
2. O'zbekiston Respublikasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yekllari sonining tavsifiy statistikasi ko'rib chiqildi .
3. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion maxsulotlarga ta'sir qiluvchi 10 ta omil tanlab olinib, bu omillar orasida korelatsion tahlil qilindi. Bu tahlilga ko'ra xulosalar berildi. Uy xo'jaliklarining xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning ishlab chiqarish hajmini 1 mlrd so'mga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion maxsulot ishlab chiqarish hajmini 2.96172042 ga oshishiga olib keladi.
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarning toifalari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), jaxon banki, Yevropa ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra toifalarga ajratib ko'rsatildi.
5. Xitoy xalq Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsiyalardan foydalanish yo'llari va milliy innovatsion tizimi (NIS) haqida ma'lumotlar berilgan, xorijning ilg'or tajribasi sifatida mamlakatimizda ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan tomonlari ko'rib chiqilgan.
6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion maxsulot ishlab chiqarish hajmi 2028- yildagi ishonch intervalining quyi chegarasi 205 158,9 mlrd so'mni tashkil qilishini, ishonch intervalining yuqori chegarasida esa 326 304,4 mlrd so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Huquqiy-me‘yoriy adabiyotlar.

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar”, shuningdek, “Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-5780-son Farmoni.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni.
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 29-noyabrda “Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli farmoni.
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni.
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292- son hamda “ Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida “ Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab quvvatlash” kompleksi dasturini amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 37-son qarori.
- 1.6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyuldagi “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5755-son Farmoni.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (yangi tahriri). 31.12.2019 y

II. Xorijiy adabiyotlar.

2.1. Prof. Dr. Kahraman Çatı Girişimcilik ve INNOVASYON YÖNTEMİ: nobel, 2.basımı. eylül 2021 sayfa 8-10.

2.2. Peter F. Drucker INNOVATION *and* ENTRE-PRENEURSHIP practice and Principles: perfect bound, November 2002, page 28.

2.3. Chong-Moon Lee, William F. Miller, Marguerite Gong Hankok and Henrys. Rowen The Silicon Valley Edge: A habitat for innovation and entrepreneurship, Stanford, California, 2000, page .

IV. O'quv qo'llanmalar

4.1. M.P. Boltaboyev, M.S. Qosimova, B. K. G'oyibnazarov, SH.J.Ergashxodjayeva, A.N. Samadov, Sh.I. Otajonov “ Kichik biznes va tadbirkorlik” T:2011, Noshir, b 45-46.

4.2. U. Inoyatov, S.Ahmedov, R.Nurimbetov “ IQTISODIYOT VA TADBIRKORLIK ” T: 2004, “O'qituvchi”, 25-27 b

4.3. Muxitdinov X.S., Xatamov O.Q., Raximov A.N. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2022. 220 bet.

4.4.U.P. Umrzakova, A. J. Toshboyeva, “ Kichik biznes va tadbirkorlik” O'quv qo'llanma. T: 2014, “Sano standart” nashriyoti, 2014 y, 243b.

4.5. I. Salamov, T. Quدراتov, I. Quدراتova “ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik”, Samarqand 2015, maruzalar kursi, 9596-bet.

VI. Statistika materiallari.

6.1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2023 yil 13 noyabrdagi 01/3-01-19-746-sonli xati.

6.2 O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlari.

VII. Internet manbalari.

7.1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

www.stat.uz.

7.2. [http:// www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz);

7.3 [http:// www.elibrary.ru](http://www.elibrary.ru);

7.4. [https:// www.researchgate.net](https://www.researchgate.net).

7.5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti www.soliq.uz

ILOVALAR

1-ilova

Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmiga ta'sir etuvchi omillar⁵⁰

Yillar	Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi, mlrd.so'm	Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar ming so'm	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar %	Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasi ning yalpi ichki mahsuloti hajmi mlrd so'm	Joriy narxlarda yakuniy iste'mol usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, milliy valyutada, mlrd. so'm Yakuniy iste'mol xarajatlari	Uy xo'jaliklari	Davlat boshqaruvi organlari	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari	Yalpi jamg'arish	Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi	Tovar moddiy zaxiralarining o'zgarishi
<i>n</i>	<i>Y</i>	<i>x1</i>	<i>x2</i>	<i>x3</i>	<i>x4</i>	<i>x5</i>	<i>x6</i>	<i>x7</i>	<i>x8</i>	<i>x9</i>	<i>x10</i>
2010	113,2	583,2	104,2	78 936,6	58 433,5	47 863,4	9 871,2	698,9	21 453,6	17 832,3	3 621,2
2011	116,1	664,6	102,6	103 232,6	75 571,1	62 367,8	12 355,4	848,0	27 571,3	21 456,2	6 115,1
2012	265,4	821,4	110,6	127 590,2	95 408,3	78 634,0	15 775,8	998,5	38 368,9	26 659,8	11 709,1
2013	409,8	1 008,2	111,3	153 311,3	118 712,9	97 156,7	20 421,7	1 134,6	42 121,1	33 363,2	8 757,8
2014	1 160,7	1 224,0	109,8	186 829,5	143 042,6	116 802,1	24 745,9	1 494,6	52 236,0	41 448,8	10 787,2
2015	1 681,8	1 431,7	109,4	221 350,9	173 804,4	141 907,3	30 141,1	1 756,1	58 311,2	48 897,7	9 413,5
2016	1 671,9	1 608,6	104,1	255 421,9	205 441,7	167 245,5	36 116,6	2 079,6	65 794,8	55 371,8	10 423,0
2017	2 324,3	2 227,8	119,4	317 476,4	243 702,0	201 224,0	39 987,9	2 490,2	92 500,9	77 308,8	15 192,1
2018	7 196,3	3 769,6	129,9	426 641,0	321 527,8	260 341,1	57 317,5	3 869,2	158 729,5	133 906,0	24 823,5

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2019	8 455,4	5 834,6	138,1	532 712,5	403 230,2	312 060,0	86 043,6	5 126,6	222 723,5	208 636,9	14 086,6
2020	14 129,1	6 140,3	95,6	605 514,9	454 349,5	352 380,5	97 816,0	4 153,0	241 931,9	221 567,8	20 364,1
2021	10 667,0	6 861,0	102,9	738 425,2	563 971,3	437 152,2	122 473,0	4 346,1	298 087,1	252 612,8	45 474,3
2022	11 470,1	7 468,6	100,2	896 617,9	695 751,5	542 913,6	149 111,3	3 726,6	336 056,0	280 692,1	55 363,9